

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX FAKULTETI

**MILLIY G‘OYA, MA‘NAVIYAT ASOSLARI VA HUQUQ
TA‘LIMI KAFEDRASI**

Mahmarajabov Shohmansur Abdisamadovichning

“5111600 – Milliy g‘oya, ma‘naviyat asoslari va huquq ta‘limi”
yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasini olish uchun
*“Uyg‘onish davri Markaziy Osiyo mutafakkirlarining siyosiy
yetakchilik to‘g‘risidagi qarashlari”* mavzusida yozilgan

**BITIRUV MALAKAVIY
ISHI**

Ilmiy rahbar:

o‘qituvchi F.Mallayeva.

“Himoyaga tavsiya etildi”

Tarix fakulteti dekani

_____dots. A.Xasanov.

_____2014 yil

Qarshi - 2014 yil

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I BOB. Markaziy Osiyodagi mytafakkirlarning davlat boshqaruvi to‘g‘risidagi g‘oyalar	
1.1.Abu Nasr Forobiyning davlat rahbarining fazilatlari to‘g‘risida	6
1.2. Ibn Sino va Beruniyning ijtimoiy-siyosiy munosabatlarga doir fikrlari	17
1.3. Kaykovusning asarlarida davlat ishlarini yuritish masalalari.....	24
II BOB.Temur va Temuriylar davrida davlat boshqaruvi munosabatlari	
2.1.A.Temurning davlat boshqaruvi munosabatlari to‘g‘risidagi g‘oyalar ...	33
2.2. Alisher Navoiy asarlarida adolatli davlat qurish masalalari	47
Xulosa.....	67
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	69

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillik yillarida o'tmishda o'tgan buyuk siymolar, allomalar, adiblar faoliyati va ilmiy merosini o'rganish, targ'ib qilish, madaniyatimiz tarixini, ma'naviy boyligimizni chuqur bilish istiqlolni mustahkamlashning muhim vazifalaridan biriga aylandi. «Ajdodlarimizning madaniy-ma'naviy boyligini chuqur va har tomonlama o'rganishimiz darkor»¹. Jamiyatimizga har tomonlama barkamol, mustaqillik ma'naviyatiga ega bo'lgan insonlar zarur. «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»da ta'kidlanganidek, «Hozirgi paytda mamlakatimiz aholisining siyosiy-huquqiy madaniyati va ijtimoiy ong darajasining o'sib borishi, jamiyatni demokratlashtirish va liberallashtirish jarayonlarining jadal rivojlanishi, yurtimizda ko'ppartiyaviylik tizimining tobora mustahkamlanishi davlat hokimiyatining uchta subekti, ya'ni davlat boshlig'i bo'lgan Prezident, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar o'rtasidagi vakolatlarning yanada mutanosib taqsimlanishini ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yuzaga keltirmoqda.»² Shu ma'noda aholi siyosiy ongi va madaniyatni yuksaltirishda murakkab dunyoning azaliy va abadiy muammolari, shu bilan birga, har bir davrning dolzarb masalalariga har tomonlama asosli ilmiy javoblar topish katta ahamiyat kasb etadi. Zero, «zaminimizda yashab o'tgan buyuk allomalarimiz, mutafakkir bobolarimizning ibratli hayoti va faoliyati, bemisl ilmiy-ijodiy kashfiyotlari bugun ham jahon ahlini hayratga solayotganini g'urur bilan ta'kidlash lozim.»³

Ma'naviy boyliklarni yaratgan buyuk siymolar merosini o'rganish va o'zlashtirish, bu masalalar bo'yicha keng ta'lim-tarbiyaviy, ilmiy-tadqiqot va o'quv-uslubiy ishlarni olib borishni talab etadi. Ular mustaqillik sharoitida yosh avlodni milliy madaniy boyliklarni yaxshi bilgan, milliy g'urur, vatanparvarlik

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.-T.: «Ma'naviyat», 2008, 41- bet.

² Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza, 2012 yil 12 noyabr)-T.: «O'zbekiston», 2010, 16-bet.

³ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch., «Ma'naviyat», -T.: 2008, 41-bet.

xissi bilan yo'g'rilgan, dunyo madaniy rivojlanish darajasidan xabardor bo'lib yetishuvida yetakchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsad va vazifalari: Mavjud asarlar va matbuot materiallariga tayangan xolda Markaziy Osiyo mutafakkirlarining siyosiy yetakchilik to'g'risidagi qarashlar doir natijalarini tahlil qilish. Maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilandi:

-IX-XII asrlarda Markaziy Osiyodagi ijtimoiy-siyosiy ta'limotlarda siyosiy yetakchilikka doir qarashlar;

-Abu Nasr Forobiyning jamiyat, uni boshqarish va davlat rahbari haqidagi qarashlari;

- Abu Ali Ibn Sino va Abu Rayhon Beruniyning jamiyat, davlat hamda ijtimoiy siyosiy munosabatlar nazariyasiga qo'shgan hissasi;

-Nizomulmulkning «Siyosatnoma yoki Siyar ul-mulk» asarida davlat boshqaruvi va siyosiy yetakchilikka doir qarashlari;

-XIV-XV asrlarda jamiyat va davlatni boshqarish ilmining rivojlanishi;

-Amir Temurning davlatni boshqarish ta'limoti;

-Alisher Navoiy asarlarida ma'rifatli, odil hukmdor g'oyasining olg'a surilishi; -Husayn Voiz Koshifiyning «Axloqi muxsiniy» («Yaxshi xulqlar») asarida amir, vazirlarning aqlu farosati, o'zini tutishi to'g'risidagi fikrlarini o'rganishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishning nazariy-metodologik asoslari:

Ishning muhim nazariy-metodologik asoslarini O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, Prezident I.A. Karimovning mavzuga taaluqli asarlari, nutqlarida ta'kidlangan yangi nazariya, qarashlari tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishini tayyorlashda umumilmiy metodlar, ya'ni analiz va sintez, induksiya va deduksiya, tizimlashtirish, noaniqlikdan aniqlik tomon borish kabi metodlar bilan birga kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ish uchun mavzuga aloqador asarlar va matbuot materiallari manba bo'lib xizmat qildi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati:

Ishning ilmiy yangiligi yangi adabiyotlar va matbuot materiallariga tayangan holda yangi nazariy metodologiya asosida Markaziy Osiyo mutafakkirlarining siyosiy yetakchilik to'g'risidagi qarashlar o'ziga xos xususiyatlari, muammo va yutuqlarini ilmiy asosda tahlil etishda ko'rinadi.

- Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida qadriyatlarning zamon talablari darajasida rivojlantirilishini, demokratik va inson huquqlari uyg'unligini o'rganish. va seminar mashg'ulotlarida foydalanish mumkin.

Ishning aprobatsiyasi. Ushbu mavzu Qarshi Davlat universiteti Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasi qoshi"Milliy g'oya targ'ibotchilari" to'garagida ma'ruza qilindi va kafedra yig'ilishlarida muhokama qilinib, himoyaga tavsiya etilgan.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi: kirish, 2 ta bob, 5 – ta paragraf, xulosa va foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. Markaziy Osiyodagi mymafakkirlarning davlat boshqaruvi to'g'risidagi g'oyala

1.1. Abu Nasr Forobiyning davlat rahbarining fazilatlari to'g'risida.

Markaziy Osiyo hududida butun musulmon dunyosiga o'zlarining asarlari bilan tanilgan, mintaq, xususan o'zbek faniga asos solgan, ajdodlarimizning ilmiy yutuqlarini xotirada saqlab, jahon ilmiy tafakkurining oldingi qatoriga olib chiqqan buyuk allomalar yetishib chiqqan. Ular olib borgan tadqiqotlar, ularning amalga oshirgan kashfiyotlari jahon, umuminsoniyat fani va madaniyatining oltin xazinasini tashkil etadi.¹

Shunday ulug' allomalardan biri Abu Nasr Forobiy (873-950 yillar)dir. O'rta asrning bir qancha ilmiy yutuqlari, umuman, Yaqin va o'rta Sharq mamlakatlaridagi taraqqiyparvar ijtimoiy-falsafiy tafakkur taraqqiyoti uning nomi bilan bog'liq. U hayotlik vaqtidayoq «Ikkinchi Aristotel», «Sharq Aristoteli», «Muallimin as-soniy» («birinchi muallim», birinchi ustoz Aristotel bo'lgan) degan fahriy nom olgan edi. Bu uning ilmi va hizmatlariga berilgan yuksak bahodir.²

Forobiy asarlari Sharq va G'arb olimlarini haligacha bilim doirasining kengligi bilan hayratga solib kelmoqda. U fanning turli sohalari bo'yicha 160dan ortiq asar yozgan, lekni ko'plari bizgacha yetib kelmagan.

Forobiy «Fozil odamlar shahri», «Baxt saodatga erishuv yo'llari haqida risola», «Davlat arbobining xikmatlari» kabi asarlarida o'rta asr sharoitida Sharqda birinchi bo'lib, jamiyatning kelib chiqishi, maqsad va vazifalari haqida ta'limot yaratgan. Bu ta'limotda ijtimoiy hayotning ko'p masalalari – davlatga birlashish xususiyatlari, davlatni boshqarish, davlatning vazifalari, insonning jamiyatdagi o'rni va burchi, umumiy baxt saodatga erishish yo'llari, ta'lim-tarbiya, ahloq, ma'rifat, diniy e'tiqod, urush va tinchlik, mehnat va boshqalar qamrab olingan.

Forobiy insonni baxt-saodatli qilish jamiyatning asosiy maqsadi ekanligini ta'kidlaydi va bunga barcha vositalar bilan erishish zarur, bu baxt saodat insonlar

¹ Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. Asarlar 7-jild. -T.: «O'zbekiston», 1999, 90-bet.

² Shamsiddinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. 1-kitob. –T.: «Sharq», 2010, 226-bet.

jamoasida amalga oshirilishi mumkin deb ko'rsatadi. Forobiyning fikricha, insonning taqdiri avvaldan belgilangan emas, har bir shaxs o'z ixtiyori bilan faoliyat ko'rsatib, o'z baxtini o'zi yaratadi, taqdirini o'zi hal etadi.

Forobiy butun jahon miqiyosida urushsiz, tinchlikka, adolatga, o'zaro hurmat va yordamga, hamjihatlikka asoslangan, har tomonlama yetuk, barcha aholini baxt saodatga, ilm-ma'rifatga olib boruvchi yagona ideal insoniyat jamoasining barpo etilishini orzu qiladi, barcha insonlarni o'zaro hamkorlikka chaqiradi.

Forobiy o'zning bu ideal jamoasida odamlarni turli belgilariga qarab guruhlariga bo'ladi. Bunda ularning diniy mazhabiga emas, balki tabiiy xususiyatlariga, qobiliyatlariga, avvalo, aqliy iqtidoriga hamda ilmlarni o'rganish va hayotiy tajriba to'plash jarayonida orttirgan bilim va ko'nikmalariga katta ahamiyat beradi. Bu jamoada insonlar baxt-saodatga erishadi. U ilm va yaxshi ahloq yordamida qo'lga kiritiladi. Forobiy davlatni boshqarishning turli shakllari haqida ham fikr yuritgan. Davlatni yetuk shaxs (monarxiya), yetuk xislatlarga ega bo'lgan bir necha shaxslar (aristokratiya) va saylangan shaxslar (demokratiya) boshqarishi mumkin deb ko'rsatgan.

Forobiy asarlari orasida «Fozil odamlar shahri» asari alohida ahamiyatga ega. Unda jamiyatni (insonlar jamoasi) kelib chiqishi, adolatli jamiyatga erishish yo'llari, fozil shahar hokimi va aholisining fazilatlarini, davlat hokimiyati va boshqaruvchi kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish kabi kabi masalalar bayon etilgan. Bundan ming yilcha muqaddam yaratilganiga qaramasdan, bugungi o'quvchi ham bu asardan hoziri hayotning murakkab muammolarini hal qilishda asqotadigan muhim fikr va yo'l yo'riqlarini topa oladi¹.

Forobiy jamiyat (insonlar jamoasi)ning kelib chiqish sabablarini odamlarning jamoa bo'lib yashash ehtiyojlaridan izlagan. Shu o'rinda uning quyidagi so'zlari diqqatga sazovordir. «Har bir inson tabiatan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmok uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kiritmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar

¹.Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. Asarlar 7-jild. -T.: «O'zbekiston», 1999, 90-bet.

jamoasiga ehtiyoj tug'iladi... Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo'lgan narsalarni yetkazib beradi. Shuning uchun inson shaxslari ko'paydilar va yerning aholi yashaydigan qismiga o'rnashdilar, natijada inson jamoasi vujudga keldi»¹.

Forobiy asarlarida davlat atamasi uchramaydi. Inson jamoalari tushunchasi orqalidavlat tushunchasi ham ifodalangan. U insonlarning eng takomillashgan jamoasi deb shahar jamoalarini biladi va ularni fazilatli hamda fazilatsiz shahar jamoalariga bo'ladi. Razolat va badbaxtlik, obro'parastlar, amalparastlar, hokimiyatparastlar shaharlarini ham ko'rsatadi. Fazilatli shaharlardagi odamlar o'zaro birlikda, totuvlikda, ittifoqda yashaydilar, bir birlariga yordam beradilar. U fazilatli shaharlarni fozillar shahri deb ham ataydi va bu yerda yashovchi aholi uchun umumiy bo'lgan xususiyatlarni ko'rsatib o'tadi: 1) ular asliy sababni va uning barcha sifatlarini bilishlari zarur; 2) moddiylikdan tashqarida mavjud narsalarni va ularning sifatlarini, faol aqlga qadar bo'lgan darajalarini hamda ulardan har birining sifatlarini bilishi zarur; 3) ular samoviy hikmatlarni va ulardan har birining sifatlarini bilishi zarur; 4) xilqatlardan pastdagi tabiiy jismlarni, ularning qanday vujudga kelishi va yo'qolishi, ularda yuz berayotgan barcha hodisalarning mukammalligi, yahlitligi, muruvvat adolat bilan oqilona ekanligini, bu hodisalarda hech bir nuqson, hech bir adolatsizlik yo'qligini bilishlari zarur; 5) ular odamzod yaralganini, uning jismiga kirgan ruhning xususiyatlarini, faol aql uning ruhini qanday qilib nurlantirgini, shu tufayli insonda dastlabki tushunchalar paydo bo'lganini, u Ollohning irodasiga bo'ysunish va nimalarda erkinligini bilishlari zarur; 6) ular shahar(davlat)ning birinchi rahbari turli sabablarga ko'ra yo'q bo'lganda uning o'rnini bosa oladigan rahbarlarni bilishlari zarur; 7) ular o'zlari erishadigan baxt-saodat nima ekanligini bilishlari zarur; 8) ular fazilatsiz shaharlar va ularning aholisi o'lganidan so'ng duch keladigan qiynoqlarni, falokatlarini ham bilishi zarur; 9) ular fozillar shahri aholisi oxiratda nelarga erishuvini, nelardan saqlanishini bilishlari zarur va xokazo².

¹ Xayrullayev M. Uyg'onish davri va Sharq mutaffakkirlari.-T.: «O'zbekiston» 1971, 301-bet.

² Abu Nasr Forobiy. «Fozil odamlar shahri»,-T.: «Xalq merosi», 1993, 166-167-betlar.

Forobiyning davlatni boshqarish haqidagi fikrlari ham muhim ahamiyatga ega. U davlatni boshqarishni alohida san'at deb hisoblaydi. Ahloq va faoliyatda izchil, bir normada, ya'ni bir meyorda ish olib boruvchi kishi davlat va mulkda faol ishtirok etuvchidir. Faoliyatda topish san'ati rahbarlik qilish san'atidir. Allomaning fikricha, davlat rahbari shunday san'atga ega bo'lishi kerakki, u biron narsaga xizmat qilish vositasi ham, boshqa san'at tomonidan boshqarilish obekti ham bo'lishi mumkin emas. Hokimlik san'atiga boshqa barcha san'atlar bo'ysunadi. Bunday san'atga ega insonni boshqa hech kim boshqarmaydi, u komillikka erishgan hamda amaldagi aql va tushunchaga aylangan. Bunday inson yuksak darajadagi komillikka erishgan bo'lishi va saodatning cho'qqisida bo'lishi kerak.

Unga baxtga erishishga yordam beradigan har qanday harakat ma'lum. U o'z bilimini so'zlar orqali yaqqol ifodalashni va odamlarni eng yaxshi usullar bilan baxtga yo'naltirishni bilishi kerak. Bunday xislatlarga esa komil faylasuflargina ega.

Baxt-saodatga erishuv va tug'ma qobiliyatlarning rivojlanishi o'z-o'zicha bo'lavermaydi, balki bu masalada qandaydir bir muallim yoki rahbarga muhtojlik tug'iladi.

Boshqalarga rahbarlik qilish, ularni baxt-saodatga erishuv darajasiga ko'tarish ham har kimning qo'lidan kelavermaydi. Kimda birovni baxt-saodatga erishtirish, zarur bo'lgan ish harakat kabilarga ruhlantira olish qobiliyati bo'lmasa va bu ish harakatini bajara olishga qudratsiz bo'lsa bunday odam sira ham rahbar bo'la olmaydi.

Ba'zi rahbarlar, bir shaharning sohibkori, shahar xalqi hayotiga tegishli ishlarda tadbirkor bo'ladilar. Ular bu yil-yo'riq, normalarni o'tmishda kechgan boshliqlardan o'rgandilar, lekin shu bilan birga, rahbar kelajak uchun o'tmishdagi rasm-rusm, yo'l-yo'riq normalarni isloh qilishni lozim va foydali topsa, turmush sharoiti taqozosiga qarab ularni o'zgartiradi. Shuningdek, yomon odatlarni o'zida ifodalovchi o'tmishni ham o'zgartirmog'i kerak.

Buyuk donishmandning ushbu so'zlari huddi bugungi kun haqida aytilgandek. Zero, mamlakatimizda kechayotgan islohotlarning bosqichma-bosqich, inqilobiy

sakrashlar-u, larzalarsiz amalga oshirilayotgani o'tmish merosimizdagi barcha ilg'or qadriyatlar, normalar, tamoyillarni olib eski o'z umrini yashab bo'lgan, bugungi kun talablariga aslo javob bermaydigan jihatlardan esa qat'iyon voz kechilayotgan davlatimiz siyosatining aynan Forobiy, Amir Temur kabi donishmand ajdodlarimiz tafakkuri erishgan yutuqlar davlat siyosatidan tobora mustahkam o'rin olayotganidan dalolat bermoqda. Podshoning qiladigan ishidan maqsadi shu bo'lishi kerakki, deb yozadi Forobiy, u xalqqa ham, o'ziga ham foyda keltirsin, bu podsho mehnatining g'oyasi va mazmunidir. Agar podsho xalq baxtining sababchisi bo'lsa, u o'z xalqi orasidagi eng baxtli kishi bo'lishi kerak.

Fozil davlat rahbari, alloma fikricha, quyidagi tug'ma tabiiy hislatlarga ega bo'lishi kerak: 1) tabiatan nozik, farosatli bo'lishi; 2) komil a'zolarga ega bo'lishi; 3) yaxshi xotiraga ega bo'lishi, ko'rgan, eshitgan va idrok etgan narsalarini tavsilotlari bilan yodda tutishi; 4) o'tkir zehnli, zukko bo'lishi; 5) ifodali nutqqa ega bo'lish; 6) ta'lim olishga, bilim va ma'rifatga xavasli bo'lish, o'qish va o'rganishda sira charchamaydigan, mashaqqatidan qochmaydigan bo'lish; 7) badnafslilik, ichkilik va shaxvoniylikdan o'zini tiya oladigan bo'lish; 8) haqiqatni va uning uchun kurashuvchilarni yaxshi ko'rish, yolg'ondan va yolg'onchilardan nafratlanish ; 9) o'z qadrini biluvchi va or nomusli odam bo'lish, tug'ma oliy himmat bo'lish va ulug' ishlarga intilish; 10) mol dunyo ketidan quvmaydigan bo'lish; 11) tabiatan adolatparvar bo'lish; 12) zarur beb bilgan harakatni amalga oshirishda qat'iyatli, sabotli, jur'atli, jasur, mard bo'lish, qo'rqqoqlik va hadiksirashlarga yo'l qo'ymaslik¹.

Forobiy bir hokimning o'rniga keladigan boshqa shaxsning ham yuqorida keltirilgan fazilatlariga ega bo'lishi zarurligini shu bilan birga, o'zidan avvalgi hokimning yaxshi ishlarini davom ettirishi, jamiyatning barqarorligi va qonunlarning vorisligini ta'minlash uchun bo'lg'usi rahbarda quyidagi olti xislatni tarbiyalash kerakligini ta'kidlaydi, birinchidan, donishmand bo'lish; ikkinchidan, avvalgi hokimlar o'rnatgan qonun-qoidalarini va odatlarni biluvchi va yodda tutuvchi bo'lish; uchinchidan, ajdodlardan tegishli qonun saqlanib qolmagan

¹ Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. «Toshkent», «Xalq merosi», 1993, 159-160-betlar.

sohada bunday qonunni o‘ylab topish uchun ijod va ishtirokchilikni namoyon etish; to‘rtinchidan, mavjud voqelikni tez payqab olish va kelgusida yuz beradigan, avvalgi hokimlar ko‘zda tutmagan voqealarni oldindan ko‘ra bilish uchun bashoratgo‘ylik xislatiga ega bo‘lish; beshinchidan, avvalgi hokimlar o‘rnatgan qonunlarga, shuningdek avvalgilaridan ibrat olib o‘zi chiqargan qonunlarga xalq amal qilishi uchun notiqlik xislatiga ega bo‘lish; oltinchidan, zarur hollarda lashkarga qo‘mondonlik qilish uchun jismonan baquvvat bo‘lish va harbiy san’atni yaxshi bilish¹.

Boshqaruvga faqat mulkdorlar vakillarini tayinlash tarafdori bo‘lgan Aflotundan farqli o‘laroq Forobiy mazkur talablarga javob beradigan har qanday shaxs hokim bo‘lishi mumkin deb hisoblaydi.

Fazilatli shahar boshliqlari to‘rt toifaga bo‘linadi, deb ta’kidlaydi alloma, ularning birinchi toifasiga haqiqat yo‘lida ish olib boruvchi podsho kiradi. U birinchi rais, ya’ni boshliq deb atalib uning oltita hislati bor: donolik, o‘ta mulohazalilik, ishontirish qobiliyatiga, jismoniyjihatdan jang qila olish qobiliyatiga egalik hamda tana tuzilishi jihatidan jangchiga xos bo‘lishi, ya’ni tanasida biron bir kamchiligi bo‘lmasligi kerak. Ana shunday hislatlarni o‘zida jamlagan shaxs o‘z faoliyatida, so‘zini o‘tkazishda, buyruqlarni bajartirishda, ish yurtishda mohir bo‘ladi.

Forobiy ushbu xislatlarning bir odamda birlashishi qiyin ekanligiga, shu sababli bunday kishilar juda kamdan-kam uchrashiga ishonadi. Shu boisdan u ikkinchi rahbarga qo‘yiladigan shartlarni dastlab oltitagacha, so‘ngra esa bittagacha kamaytiradi. Ammo bunda har biri belgilangan normalardan biriga javob beradigan oltita rahbar bo‘lishi shart qilib qo‘yiladi.

Agar shunday kishi topilmasa , - deb yozadi Forobiy yuqoridagi hislatlarni o‘zlariga jamlagan bur guruh ham podshoning o‘rnini bosishlari mumkin. YA’ni bu guruhning biri g‘oyalarni ilgari suradi, ikkinchisi bu g‘oyalarni qanday qilib amalga oshirish yo‘llarini ko‘rsatib beradi, ya’ni biri ishontradi va tushuntiradi. Oxirgisi esa lashkarboshilik qiladi, shunday qilib, bularning hammasi yig‘ilib

¹ O‘sha asar. 160-161-betlar.

podsholik rolini o'taydilar va ahil boshliqlar deb nomlanadilar va ular tashkil etgan hay'at, fozillar hay'ati deb ataladi. Agar bunday kishilar bo'lmasa bu vaqtda shahar boshlig'i, sharoit va sunnalarni yaxshi biladigan, har qanday sharoitda ahvolni tushuna oladigan, o'qigan payti kelganda sunnada yozilmagan narsalarni ham topib qo'llay biladigan, yaxshi fikrli shaharni tashkil qiladigan ustaroq bo'lgan, notiqlik qobiliyati bor jangchi ham boshliq bo'lsa bo'ladi. Bunday boshliq tajribali boshqaruvchi deb nom oladi. Agar bunday kishi ham topilmasa, uning o'rnini yuqoridagi xislatlarga ega bar guruh shaxslar ham bajarishi mumkin. Bu jamoa tajribali kishilar deb nomlanadi.

Ushbu norma ehtimol, davlatga jamoa bo'lib rahbarlik qilish zarurligini asoslash uchun kerak bo'lgandir. Bu yerda biz jamoa bo'lib rahbarlik qilishning «demokratik» boshqarish shakllari va xalq hokimiyati to'g'risidagi ayrim fikrlarni ko'ramiz.

Lekin, Forobiy demokratik boshqaruv shaklini yetuk boshqaruv shakli, bunday boshqaruvga asoslangan shaharlarni esa yetuk fozil shahar deb bilmaydi, balki, yomonlikni targ'ib qiluvchi shaharlardan farq qilib, fozil shaharlarga erishuv yo'lidagi muhim bosqich deb tushunadi.

Bir tomondan, Forobiy bunday shaharlardagi ozodlik, teng huquqlilikni ma'qullaydi, unga zo'r hayrixohlik bilan qaraydi; ikkinchi tomondan, shahar aholisining baxt-saodatga erishuvi muayyan asosiy normalarga amal qilib turuvchi, xalqni doimo olg'a undab turuvchi yetuk boshliqsiz mumkin emas deb biladi.

Forobiy davlat boshqaruvida qonunlar, meyorlar ishlab chiqarish muhim o'rin tutishini, ayni paytda, uni hayotga tadbiq etish zarurligini alohida ta'kidlagan. Faqat ezgu maqsadlarga xizmat qiladigan, barcha uchun barobar dahldor qonunlar, meyorlarga jamiyatda to'sqinliklarsiz amal qilishini uqtirgan.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Forobiy fozil shaharning fozil hukmdori timsolida odamlarga haqiqiy baxt-saodatga erishish yo'llarini ko'rsatuvchi va komil inson g'oyasini ilgari suruvchi buyuk allomadir. Uning g'oyalari O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat qurishda yetakchi

bo‘lib kelayotgan shahar, tuman va viloyatlarning hokimlari hamda boshqa rahbarlar uchun ibrat maktabidir.

Xullas, Forobiy fanning turli sohalarida, bebaho meros qoldirdi. U o‘z davridayoq buyuk qomusiy olim sifatida mashhur bo‘lgan.

Buyuk insonshunos olim Abu Nasr Forobiy o‘z asarlarida «fozil», ya’ni adolatli jamiyatlar bilan birga «johil» insonlar va jaholatdagi jamiyatlar haqida ham qimmatli fikrlar bildirgan. U johil jamiyatlarning juda ko‘p turlarini sanab o‘tgan. Uning fikricha ma’naviy ahloqiy sifat va fazilatlardan mahrum bo‘lgan o‘z hayoti va faoliyati davomida ularga rioya qilmaydigan kishilar jamoasi johillar jamoasi deb ataladi. Bunday jamoaning a’zolari ham yaramas ahloqli, xulq-atvorli kishilardir. «Fazilatsiz shaharlarning odamlari yomon fe’llari, tabiatlari tufayli ko‘ngillari, ruhlari ham yomonlashib boraveradi. Mobodo ular ana shu yomon ishlarida izchil say-harakat, tobora kuch g‘ayrat ko‘rsatsa, ularning ruhlari yanada ko‘proq yomonlashadi va oxiri mayib-majruh bo‘lib qoladi. Shu tufayli ular o‘zlariga yoqadigan yomon ishlardan huzur-xalovat oladilar»¹, - deydi Forobiy.

Mutaffakkirning ta’kidlashicha, joxillar nodon, ilmsiz, ma’naviyatsiz, ma’rifatsiz kimsalar, shuning uchun ular baxt-saodat, yuksak kamolot nimaligini tushunmaydilar, ular haqida xech qanday tasavvurga ega emaslar, shu sababdan ular bunga intilmaydilar ham. «Ular, - deydi Forobiy, - baxtu davlat bo‘lib ko‘rinadigan o‘tkinchi, yuzaki narsalarni, mol-dunyoni, jismoniy lazzatlarni, xirsu-shahvatni, obro‘, amal, shon-shuhratni haqiqiy baxt, farovonlik deb o‘ylaydilar. Shu ne’matlardan har biri jaholatdagi odamlar nazarida hayotdan maqsad, baxt-saodat bo‘lib ko‘rinadi»². Forobiy ma’naviy-ahloqiy, jihatdan nosog‘lom, har qanday pastkashlik yo‘li bilan o‘z maqsadiga erishuvchi bunday odamlarga nisbatan salbiy munosabatda bo‘ldi.

«Ammo, - deydi alloma, - jaholat, yovuzlik, haqsizlik, abadiy hodisalar emas, bu illatlarga albatta barham beriladi. Jamiyatda ezgulik, hamkorlik, hamjihatlik, do‘stlik, adolat albatta tantana qiladi, shunday zamonlar keladiki, insoniyat albatta

¹ Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. «Toshkent», «Xalq merosi», 1993, 166-bet.

² O‘sha asar. 162-bet.

yuksak kamolotga oliy baxt-saodatga erishadi». Shu bois Forobiy kasb-hunar egalarining, savdogar va tijoratchilarni, o'z kasbi va faoliyatini chin dildan halol bajaradigan insonlarni va ularning o'zaro munosabatlarini sharaflaydi hamda ularni jamiyatni mustahkamlaydigan toifa deb hisoblaydi.

Odamlar uyushmasining yana boshqa bir boshqa shakli ayriboshlovchilar shahri haqida gapirib Forobiy bu shahar aholisi to'qchilik va mol-dunyoga erishuvda bir-birlariga yordam berishni o'z maqsadlari deb biladilar, deydi. Shuxratparastlar shahri aholisi esa o'zaro bir-birlarini maqtashni yoqtiradilar, ularni birovlar ulug'lashini, ko'klarga ko'tarishini xohlaydilar. Amalparastlar va hokimiyatparastlar shahri aholisi bo'lsa hamma xalqlar ularga bo'ysunishini istaydilar. Yana bunday shaharlarga benomuslar shahri ham kiradiki uning aholisi fozillar bilgan hamma narsani biladi, tushunadi, ammo amal qilishni xohlamaydi.

Beqaror va adashgan shaharlar ham bo'lib, bu shaharlarning aholilari avvalroq o'z g'oya va tushunchalariga ega bo'ladilar, keyinroq esa bu yurtga begona, yet g'oyalar kirib qolsa, o'sha g'oyalarga berilib ketadilar va o'z qarashlarini butushlay o'zgartiradilar. Bizning zamonamizda huddi vahhobiylar, ekstremistlar, terroristlar guruhiga kirib qolgan kimsalar singari, ular o'z ota-onalariga qo'l ko'taradilar, ustozlarining yuziga tik qaraydilar, farzandlarini o'ldiradilar. Chunki ular johillar, ko'rlar, ularning mafkurasi yo'q manqurt kimsalardir. Abu Nasr Forobiy bundaylarni o'z davridayoq juda qattiq qoralagan va ularga qarshi kurashish o'zini insonman deb hisoblagan har bir kishining muhim vazifasidir, muqaddas burchidir, deb ta'kidlagan. Shunday shaharlardan yana biri adashgan shahar bo'lib, bunday shaharda aholi allomaning fikricha faqat o'lgandan keyin baxt-saodatga erishish mumkin, degan fikrga ishonadi. Inson o'z baxtini o'zi, o'z mehnat faoliyati bilan yaratadi, degan g'oya ular uchun yotdir.

Forobiyning ta'kidlashicha, bunday shaharlarning hokimlari o'zlarini har qanday yo'llar bilan ilohiy sifat – nur sohiblari deb tushuntirishga harakat qiladilar. Ular jamoaning xech qanday qonun-qoidalariga rioya qilmaydilar. Oxir-oqibatda ularning bunday noqonuniy harakatlari bu shaqarlarning yemirilishiga sabab bo'ladi.

Shu bois, bu shaharlardagi hokimlar, amalparastlar va boshqa shu jamoada yashovchi kishilarning xato va illatlari, jinoyatlari va ahloqiy yomon fe'llari bartaraf etilsa bunday jamiyatlar fozil jamiyatga aylanishi mumkin.

Eng yomon shaharlar deb, Forobiy razolat (tubanlik) va badbaxtlik shahri hamda shahvatparastlar shahrini hisoblaydi. Asarda shunday deyiladi: «razolat (tubanlik) va badbaxtlik shahri, bunday shahar aholisi faqat yeyish, ichishda, jinsiy aloqada xuzur halovatga erishishga, hissiy lazzatlar, ishrat, kaf-sofoning barcha turlariga intiladilar»¹.

Bundan tashqari, zaruriy ehtiyojlar shahri ham bo'lib, bunday jamoa a'zolari «faqat badan uchun zarur bo'lgan narsalar: oziq-ovqat, ichimlik, kiyim-kechak, tura-joy, jinsiy aloqa hamda shularga zrishish uchun bir-birlariga yordam berish bilan gina cheklangan odamlardir»². Bunday jamoa kishilarning yashashdan asosiy maqsadi oliy darajadagi rohatlanishdir.

Forobiyning fikriga ko'ra, bunday jamoada kimki jismoniy rohatlanish uchun ko'proq vositalarni qo'lga kiritisa, o'sha o'zini ko'proq ob'ro'li, baxtli g'isoblagan.

Kishilar uyushmasining eng tuban, eng dahshatlisi shahvatparastlar shahridir, deydi Forobiy. Bu jamoada esa shahar aholisining har biri ehtirolari tizginini jilovlamay istagancha o'z mayllarini qondirishga intiladilar.

Jaholatdagi shaharlar aholisining mashg'ulotlari ham yuqorida aytilgan maqsadlarga xizmat qiladi. Jaholatdagi shaharlarning hokimlari ham huddi shu shaharlar aholisi kabidir. Ular o'zi hukmronlik qilgan shaharlarda yuqorida aytib o'tilgan shaxsiy istaklarini tinimsiz qondirishga intiladilar. Bunday kishilar ahloqi zamonaviy sotsiologiyada deviant ahloq deyiladi.

Shu bois, bunday fe'l-atvorli kishilarni tarbiyalash va jamiyatni turli illatlardan ozod qilish zamonaviy sotsiologiyaning muhim vazafalaridandir. Bu masalani Forobiy o'rta asr sharoitidayoq ko'tarib chiqdi va bunday kishilarning ahloqi jamiyat a'zolariga, ularning ma'naviy hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatishini

¹ Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. «Toshkent», «Xalq merosi», 1993, 161-bet.

² O'sha asar. 162-bet

qat'iy ta'kidladi. Jamiyatda bunday kishilar ko'paysa, jamiyat halokatga yuz tutadi, aksincha, jamiyat ulardan holi bo'lsa, yuksak farovonlik va taraqqiyotga erishadi.

Bu bilan Forobiy jamiyat qanday bo'lsa odamlarning ham shunday turini tarbiyalaydi, aksincha odamlar qanday bo'lsalar jamiyatning ham shunday turini yaratadilar demoqchi. Albatta, Forobiy ijtimoiy turmushdagi barcha voqea va hodisalarga o'z davri sharoitidan, feodal tuzum mohiyatidan kelib chiqib baho bergan, shu sababli o'sha davr jamiyatlarini o'z maqsad va vazifasiga va tutgan yo'liga qarab ahloqsizlar jamoasi, bosqinchilar jamoasi, jabr-zulmga asoslangan jamoa, boylik to'plashni, kayfu-safoni maqsad qilib olgan jamiyatlarga ajratgan. Ming afsuski bunday salbiy illatlar bizning davrimizda ham uchraydi. Shu bois deydi alloma, ta'lim-tarbiya yo'li bilan bunday salbiy illatlarni va kishilardagi jirkanch fe'l-atvorlarni tuzatish mumkin. Uning uqtirishicha, hukmdorlar hokimiyatdan o'z shaxsiy manfaatlarini ta'minlash, iflos mayllarini qondirish, mol-dunyo to'plash, nafs balosiga erk berish, o'zgalarni o'ziga bo'ysundirish, xalqni ezish, aldash, haqoratlash, unga har qanday yo'llar bilan zulm o'tkazish vositasi sifatida emas, balki mamlakatda yashab turgan barcha fuqarolarni millati, dini, tili, ijtimoiy mavqei, kelib chiqishidan qat'iy nazar, teng huquqliligini kafolatlash, adolatni qaror toptirish, xalqni erkni va ozod yashashini ta'minlash, tinch va osoyishta hayot kechirishni ta'minlash vositasi sifatida foydalanishi lozim.

Donishmandning fikricha agar bu illatlarning oldi olinmasa, ular yildan-yilga, avloddan-avlodga o'tib, yanada chuqur ildiz otadi. Natijada johil ota-onalardan noqobil bolalar dunyoga keladi, bu esa jamiyat va davlatning kelajagini xavf ostida qoldiradi.

Alloma shunday deydi: «Ba'zi shaharlar (yoki mamlakat) bo'ladiki, ularda butun xalqning fikru-zikri, aql-idroki boylik to'plash, mol-dunyo orttirishga qaratilgan bo'ladi. Ulardan chiqqan hukmdorlar ham rahbarlikni mol-dunyoni ko'paytirishda deb biladilar. Shuning uchun ham ular ertayu-kech mol-dunyo to'plash harakatida bo'ladilar. Bunday rahbarlarning qo'l ostidagi ishlagan shahar xalqlarida turli buzuvq odatlar, shahvoniy nafs, bir-birlarini ko'rolmaslik, bir-

birlarini talash, dushmanlik, nizo-janjallar paydo bo‘ladi. Ana shunday shahar xalqlaridan mayllari turiga bo‘lgan avlod tug‘iladi»¹

Natijada deydi allma, - bunday jamiyat halokatga yuz tutadi. Shu bois, Forobiyning fikricha, bunday illatlarning o‘z vaqtida oldi olinsa, jamiyat uchun ham xalq uchun ham ayni muddao bo‘lar edi.

Shunday qilib, Abu Nasr Forobiy insoniyat jamiyati, uning kelib chiqishi, boshqarish usullari va vositalari haqidagi o‘z ustozlarining hojalariga, ilg‘or nazariy merosga tayanib, o‘zining hayotiy kuzatishlari va mulohazalari asosida jamiyat va davlatning turlarini, ko‘rinishlarini, davlat va jamiyat kelib chiqishining asosiy sabablarini, jamiyatda kishilarning jamoa bo‘lib yashash qonunlarini bayon etgan.

1.2 Ibn Sino va Beruniyning ijtimoiy-siyosiy munosabatlarga doir

fikrlari

Markaziy Osiyodagi ilm-fan va madaniyat rivojida qomusiy olim Abu Rayxon Beruniy (973-148 yillar)ning ham o‘ziga xos o‘rni bor. U jahon fanida, xatto she‘riyatda ham sezilarli iz qoldirgan. Xorazm Ma‘mun akademiyasida faoliyat ko‘rsatgan buyuk allomalardan bo‘lgan, unga ko‘proq shuhrat keltirgan, uni boshqargan, fahri bo‘lgan. Uning ilmiy merosi nihoyatda ko‘p qirrali bo‘lib, o‘sha davrdagi deyarli hamma fanlarni o‘z ichiga qamrab olgan.

Beruniyning 154 ta tarjimasi, turli hajmdagi asarlar, yozishmalar yozganligi haqida ma‘lumotlar bor, lekin bizgacha 30 tasi yetib kelgan. Bu asarlarida, bir tomondan Markaziy Osiyo, qadimgi Yunon va Hind mutaffakkirlarining ilg‘or an‘analarini ijodiy rivojlantirgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, uning yetukligi, tafakkur doirasining kengligidan dalolat beradi. Beruniy tomonidan «sabablarning sababi» – inson va insoniyat jamiyatining yuzaga kelishi masalasining qo‘yilishi diqqatga sazovordir. Bu to‘g‘rida u «qadimgi tarixlarning eng qadimgisi va mashhuri bashariyatning boshlanishidir»², deb yozadi. Demak, aloma bu masalada ratsionalizm pozitsiyasida turgan, insonlar o‘rtasidagi tafovutni e‘tirof etgan, faqat

¹ Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. «Toshkent», «Xalq merosi», 1993, 166-bet.

² Ma‘naviyat yulduzlari (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalari, adiblar).-T.: «Xalq merosi», 2001, 107-bet.

tashqi farqlar haqida fikr yuritgan, kishilarning ichki tuzilishi va tashkil topishi barchada umumiy degan xulosaga kelgan.

Beruniyga «Hindiston», «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Mineralogiya», «Geodeziya» kabi yirik asarlari toa ma'noda jahonshumul shuhrat keltirgan.

«Hindiston» asari ham hajmi, ham ahamiyati jihatidan Beruniy asarlarining eng yirigi hisoblanadi. U 13 yil davomida olib borilgan ilmiy qidiruv ishlari natijasida yozilgan va 80 bobdan iborat. Asarni yozish uchun 1 yilu 8 oy ketgan (1030 yilning 30 aprelidan to 1031 yilning 19 dekabrigacha). «Hindiston»ga o'xshagan asar umuman fan tarixida uchramaydi. Unda hindlarning tarixi, fani, urf-odati, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ahvoli, e'tiqodlari, modda, tangri, olam, inson, jon kabilarga bo'lgan qarashlar ularning dinlari, dinlarining kelib chiqishi, tarixi, payg'ambarlari, aniq fanlar sohasidagi ilmlar, o'lka va shaharlarning chegaralari va ularga oid bo'lgan afsona va tarixlar, yozuv va tillari, she'r va vaznlari, ularning o'sha davrdagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ahvoli kabi masalalar mohirlik bilan bayon etilgan.

Beruniy musulmonlar bilan hindlarning urf-odatlarini o'rtasidagi farqlarni tahlil qilib, ularning geografik sharoitlarga bog'liqligini ta'kidlaydi. Tillarning turlichaligini ham geografik omillarga bog'laydi, insonlarning guruhlariga ajralib ketishi va bir-birlaridan uzoq turishlarini tillarning turlicha bo'lishi asosiy sabablaridan deb ko'rsatadi.

Uning «Geodeziya», «Mineralogiya», «Qadim xalqlardan qolgan yodgorliklar» kabi asarlarida ham tarix, adabiyot, tilshunoslikka oid qimmatli ma'lumotlar bor. U tarixni bayon qilishda diniy e'tiqod va irqlardan qat'iy nazar, xolisona turish tarafdori bo'lgan. Qiyosiy tahlil metodidan keng foydalangan. Masalan, hind fani va falsafasi, hindlarning diniy e'tiqodlari va urf odatlari haqidagi ma'lumotlarni yunon falsafasi va mifologiyasi bilan solishtiradi.

Beruniy hind falsafasini yoritishda o'zining xolisonalik tamoilidan kelib chiqqan holda jiddiy o'zgartirishlarni kiritimasdan, balki ushbu muammoni talqin qilishda bizgacha yetib kelmagan manbalarga asoslangan. Ilmiy xolisonalik uning

quyidagi soʻzlarida oʻzining yorqin ifodasini topgan: «Bu (yaʼni «Hindiston») kitob bahslashish va tortishish kitobi emas, shuning uchun bu kitobda dushmanlar isbotini keltirmayman va haqiqatdan chetga chiqqanlarga qarshilik koʻrsatmayman. Bu faqatgina bayon qilish kitobidir, xolis»¹.

Beruniy hind falsafasining muammolari, xususan, xudoni taʼriflash haqida fikr yuritar ekan, har bir millatda oʻqimishli va oʻqimishli boʻlmagan tabaqalarning eʼtiqodlari xususan diniy masalalarga taalluqli qarashlari orasida muhim farq borligini qayd qiladi.

«Oʻqimishli xalqlar Xudoni mavhum gʻoyalar shaklida tushunsalar, oʻqimishli boʻlmagan xalqlar esa obektlarni faqat xissiyot orqali idrok etishadi»². Beruniy ushbu farqlarni tabaqalarning ijtimoiy va maʼrifiy mavqei nuqtai nazaridan aniqlashga harakat qiladi. U yuqori va avom tabaqalarning farqini asosan ilm bilan aloqalari borligiga qarab ajratgan. Demak, xudo haqidagi tasavvurlarning xilma-xilligini nazarda tutishning ijtimoiy ahamiyati shundan iboratki, agar ular nazarda tuilmasa, jamiyatda shu yoʻnalishdagi kelishmovchilik va tafovutlarning keskinlashishiga olib kelishi mumkin.

Bulardan koʻrinadiki, Beruniy hind falsafasini tahlil qilishda unga bir tomonlama yondashmasdan, balki bor imkoniyatlardan kelib chiqib xolisona, uning haqiqiy mazmunini ochib berishga harakat qilgan. Alomaning hind diniy-falsafiy oqimlarining metafizikasini ham faktologik aniqligi ham oʻzi ochgan falsafa tarixi, rivojlanishning maʼlum qonuniyatlari nuqtai nazaridan talqin qilinishi unga hind tafakkurining anʼanaliri va mazmunini hamda umumlashtirilgan manzarasini koʻrsatishga imkon berdi.

Umuman olganda, Beruniy hind dinlari va falsafasi xususida arab tilida eng yorqin sahifalarni yaratdi. U jahon fanida hind tafakkurining tarixi haqida yozgan mualliflar orasida eng muhim oʻrinlardan birini egallaydi. «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida podshoxlar va mashhur shahslar tarixi va oʻsha davr madanitiga oid etnografik maʼlumotlar berilgan. Asarning qimmatini shundaki, u

¹ Joʻraqulov F. Jahon fanida Beruniy tomonidan Hind falsafasini yoritishning baholanishi masalalari, «Falsafa va huquq», 2005, 4-son, 13-bet.

² Oʻsha asar. 15-bet.

islomgacha bo'lgan butun bir davrni o'rganishga muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Unda yunonlar, rimliklar, eroniylar, sug'diylar, xorazmliklar, yulduzga sig'inuvchilar(xorroniylar), qibtiylar, xristianlar, yahudiylar, islomgacha bo'lgan arablarning yil hisoblari, turli bayram va mashhur kunlari mufassal tasvirlangan, ko'p xalqlarning ma'naviy hayoti va tarixiga oid qimmatli ma'lumotlar berilgan.

Beruniyning muhim g'oyalaridan biri moddiy omilning ahamiyatini e'tirof etishdir. U insonlar o'zlarining zaruriy ehtiyojlarini qondirish va boshqalardan o'zini himoya qilish uchun, uyushgan holda yashash va ishlashga majburdirlar, ularning ehtiyojlari turli-tuman va ko'p bo'ladi, faqat bir necha kishilar uyushmasigina uni qondirishi mumkin, deb ko'rsatadi. Uningcha, odamlar jamoasi o'zaro yordamga, bir-birlari bilan tinch totuv yashashga, umumiy manfaat uchun ishlashga asoslanib tuzilishi lozim.

Beruniy mehnatning jamiyatda tutgan o'rnini masalasida ham g'oyatda qimmatli fikrlarni bayon qilgan. Bu haqda u «insonning qadr-qimmati o'z vazifasini a'lo darajada bajarishidan iborat; shuning uchun insonning eng asosiy vazifasiva o'rnini mehnat bilan belgilanadi, inson o'z xohishiga mehnat tufayli erishadi»¹, deb yozgan edi. Uning fikricha, odamlarning mijozi (temperamenti) va qobiliyatlari bilan turlicha. Shunga ko'ra, maqsadlarida ham farq bor. Bu hol mehnat taqsimotini, u esa mehnatni qadrlash lozimligini keltirib chiqargan. Natijada pul paydo bo'lgan va o'zaro almashinuvning umumiy o'lchov ekvivalenti vazifasini bajarish orqali insonlar ehtiyojlarini qondira boshlagan. Puldan noto'g'ri foydalanish oqibatida yomonlik,

Bu ularning hayoti va mol-mulkini himoya qilish va qo'riqlash yo'lida badan charchashidan iborat»².

Beruniyning fikricha, tabiatan boshqarishga moyil bo'lgan hokim o'z fikri va qarorlaridaqat'iy bo'lishi, o'z ishlarini amalga oshirishda faylasuflarning qonunlariga bo'ysunishi, yaratuvchanlik ongiga ega bo'lishi, ayniqsa dehqonlar to'g'risida ko'proq g'am yeyishi lozim. Beruniy «odil hokimning asosiy vazifasi

¹ Buyuk siymolar, allomalar, 1-kitob,-T.: «Xalq merosi», 1995, 51-bet.

² O'sha asar. 51-52-betlar.

oliy va past tabaqalar, kuchlilar va kuchsizlar orasida tenglik, adolat o'rnatishdan iborat»¹, deb ta'kidlaydi.

Dunyo ilm-fani va madaniyati tarixida Sharqda «Shayx ar-ra'is» (donishmandlar sardori, allomalar boshlig'i), «Sharof al-mulk»(o'lka, mamlakatning obro'si, sharafi), «Xujjat al-haqq» (donishmand, tadbirkor vazir), G'arbda «Avitsenna» nomi bilan mashhur bo'lgan qomusiy olim Abu Ali Ibn Sino (980-1037 yillar) ning boy ilmiy madaniy merosi ham muhim o'rin tutadi. U 480 dan ortiq asar yozgan bo'lib, bizgacha ularning 242tasi yetib kelgan: 80 tasi falsafa, ilohiyotva tasavvufga, 43 tasi tabobatga, 19 tasi mantiqqa, 26 tasi ruhshunoslikka, 23 tasi tibbiyot ilmiga, 7 tasi falakkiyotga, 1 tasi riyoziyotga, 1 tasi musiqaga, 2 tasi kimyoga, 9 tasi odob ilmiga, 4 tasi adabiyotga, 8 tasi boshqa olimlar bilan bo'lgan yozishmalarga tegishlidir². Ijtimoiy masalalar, xususan davlat boshqaruvi masalasida Ibn Sino Forobiyning «Fozil odamlar shahri» asarida bayon etilgan fikrlarga yaqin turadi. U shaharning madaniyat, adolat va iqtisodiy farovonlikni ta'minlovchi tuzum deb biladi. Uning fikricha, eng oliy fazilat nazariy donolik emas, balki hayotga tadbqiq etilgan, odamlarga foyda keltiruvchi, aql-zakovatdir.

Ibn Sino insonga obektiv moddiy jarayon deb qaragan. Uning fikricha, avvalo tog'u-toshlar, so'ng o'simlik va hayvonlar, nihoyat taraqqiyot mahsuli sifatida inson paydo bo'lgan. Inson boshqa mavjudotlardan so'zlashuv tili (nutqi), aql-idroki va tafakkuri bilan ajralib turadi. Kishilarning jamiyatga birlashib yashashlarining asosiy sharti barcha uchun bir xilda bo'lgan aqlga muvofiq qonunlar va odil sudlov asosida amalga oshiriladigan o'zaro tinch hamkorlikdir.

Ibn Sinoning ijtimoiy hayot haqidagi ta'limotida adolat, tinchlik, yaxshilik va hamdo'stlik hukmron bo'lgan ideal davlat haqidagi g'oyalari muhim o'rin egallaydi. Uning fikricha: 1) bu davlat tepasida ma'rifatparvar shoh turadi; 2) jamiyat a'zolarining barchasi foydali mehnat bilan shug'ullanadilar. Mehnat qila olmaydiganlar va betoblar jamiyat jamg'armasidan yordam oladilar. Bu jamg'arma

¹ Ma'naviyat yulduzlari (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar).-T.: «Xalq merosi», 2001, 109-bet.

² Shamsiddinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. 1-kitob. –T.: «Sharq», 2010, 228-231-betlar.

solliqlar va xayr-ehsonlardan tashkil topadi; 3) aholi ma'muriy ishlar bilan shug'ullanuvchilar (hukmdorlar), ishlab chiqaruvchilar (mehnatkashlar) va harbiylar (jangchilar)daniborat uch tabaqaga bo'ysunadi; 4) barcha moddiy boyliklar teng taqsimlanadi va misli ko'rilmagan katta boylik ham, qashshoqlik ham bo'lmaydi; 5) hamma odamlar halol mehnat va savdo bilan shug'ullanganligi tufayli urushlar bo'lmaydi, davlatlar o'rtasidagi munosabatlar tinch yo'l bilan hal etiladi; 6) odamlar jamiyatdagi tartiblar va tegishli tarbiya vositasida o'zlarining ahloqiy tabiatlarini o'zgartiradilar va uzoq umr ko'radilar, odamlarning bir-biriga zid harakatlari barham topadi.

Ibn Sino ideal davlat vujudga kelishining tub asoslarini eng avvalo odamlarning uzidan, ularning mehnatidan, odob-ahloq va tarbiyasidan izlagan. Uning jamiyat a'zolari, xususan, hukmron tabaqalar va amaldolarning ahloqiy jihatlari haqidagi fikrlari ham katta ahamiyatga ega. Bu kishilar boshqalarga nisbatan ko'proq ahloqiy kamol topishi lozim. Ular qalbining pokligi siyosatning asosiy tamoyili bo'lishi kerak, deb ta'kidlaydi. Chunki nopok hukmdor va amaldorlar yomon qonunlar chiqarishi va yoki yaxshi qonunlarni noto'g'ri tadbiiq etishi, yoki umuman qonunlarni poymol etishi mumkin. Ibn Sino davlat boshliqlarining ish yuritishlari, shaxsiy sifatlari haqida ham qimmatli fikrlarni olg'a surgan. Ayrim hukmdorlarning o'z atrofiga g'iybatchi, chaqimchi, laganbardor mulozimlarni to'plashni, to'g'riso'z va haqiqatni yoqtirmasliklarini tanqid qilgan hamda o'z atrofiga sadoqatli, aqlli va to'g'ri maslahatlar beruvchi kishilarni to'plovchi odil va oqil hukmdorlarni orzu qilgan¹. Agar odamlar o'zlarini boshqara olish ilmini egallab olsalar, oila a'zolari, jamiyat turli tabaqalari o'rtasidagi aloqalar mustahkamlanib, munosabatlar uyg'unlashib borsa, bunday jamiyatni siyosiy boshqarish oson bo'ladi, deb ta'kidlagan.

Ibn Sino jamiyatdagi oddiy tengsizlikni e'tirof etgan va barcha odamlarning boyib ketishlariga, yoki aksincha, kambag'allashib ketishlariga qarshi chiqqanlar. U agarda barcha odamlar birdek boyib ketsalar bir-birlariga yordam berish imkoniyati tugaydi, agarda hammasi kambag'allashib yo'qsillarga aylansalar

¹ Po'latov H., Sulaymonov Q. Siyosatshunoslikka kirish. Farg'ona, 1994, 90-91-betlar.

ocharchilikdan o'lib ketadilar degan fikrda bo'lgan. Odamlarni o'zaro hamjihatlikda hamkorlikda yashashga chaqirgan, xalqlar va davlatlar o'rtasida tinchlik bo'lishini, mamlakatni adolatli ma'rifatparvar shohlar boshqarishini, jamiyatda ilm-fan, madaniyat rivojlanishini orzu qilgan. Adolatli qonunga butun aholi hukmdor va xatto payhambarlar ham itoat etishi lozim, agar davlat boshlig'ining o'zi adolatsizlikka yo'l qo'ysa, xalqning unga qarshi qo'zg'olon ko'tarishga haqqi bor, jamiyat buni qo'llab-quvvatlashi kerak, deb hisoblagan. U har bir kishining o'zini-o'zi boshqarish ilmini egallashi g'oyasini ham olg'a surgan. Ibn Sinoning ijtimoiy hayotga doir fikrlari «Kitob ash-shifo», «Kitob un-najot», «Donishnoma» kabi asarlarida berilgan.

Ibn Sino o'zining ko'ptarmoqli mahsuldor ijodi, boy merosi bilan jahon madaniyati taraqqiyotida katta rol o'ynadi. O'z ijodi, ilmiy faoliyatida Markaziy Osiyo, yaqin va o'rta sharq mamlakatlaridagi yuqori madaniy ko'tarinkilik, madaniy «uyg'onish» ning ma'naviy yutuqlarini mujassamlashtira oldi va bu bilan butun Sharq va Yevropadagi ma'rifat, madaniyat taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Markaziy Osiyoda ijtimoiy fanlar mavzusida Kaffol Shoshiy (903-970 yillar), Abu Abdulloh al-Xorazmiy (vafoti 997 yil), Ismoil Jurjoniy (1042-1136 yillar), Mahmud Chag'moniy (12-13 asrlar) kabi allomalar ham ijod etishgan.

Arab olimi Ibn Xallikonning yozishicha qonunshunoslardan dastlab, «Xusni jadal» («Dialektika go'zalligi») degan asar yozgan kishi Kaffol ash-Shoshiy bo'lgan¹.

Shunday qilib yuqoridagilardan ko'rinadiki IX-XII asrlarda yashab ijod etgan, madaniy «uyg'onish» yutuqlarini mujassamlashtirgan buyuk allomalar o'zlarining mahsuldor ijodlari, boy ilmiy meroslari bilan keyingi ijtimoiy siyosiy fikr rivojiga katta ta'sir ko'rsatdilar. Qomusiy ilm sohibi bo'lgan bu allomalarning asarlari XII asrdan boshlab lotin tiliga, keyinchalik dunyo xalqlarining turli tillariga tarjima qilindi va ilm-fan xazinasiga bebaho xissa bo'lib qo'shildi.

¹ Ma'naviyat yulduzlari. (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar).-T.: «Xalq merosi», 2001, 85-bet.

1.3. Kaykovusning asarlarida davlat ishlarini yuritish masalalari.

Kaykovusning «Qobusnoma» asari - Sharq va Markaziy Osiyo xalqpari orasida keng tarqalgan axloqiy-ta'limiy asar, fors-tojik badiiy nasrining birinchi va yirik yodgorligi (XI-asr). Tabariston (Mozandaron) hukmdori Shams al-Maoliy Qobusning nabirasi Unsur al-Maoliy (Kaykovus, 1021—98) tomonidan fors tilida yozilgan (1082—83) va «Nasihatnomai Kaykovus» deb atalgan. «Qobusnoma» shu asarning o'zbekcha tarjimasidir. Muallif asarni o'g'li Gilonshohga bag'ishlagan.¹

«Qobusnoma» asosini Qur'oni karim suralari, Muhammad (sav)ning faoliyati va kursatmalarini ifodalovchi hadislar, hikmatli hikoyatlar tashkil etadi. Asar 44 bobdan iborat. Dastlabki 4 bobi Haqni tanimoq, Payg'ambarlarning xilqati (yaratilishi), Alloh ne'matiga shukur qilmoq haqida bo'lib, qolgan 40 bobi otaonani hurmatlash, ilmiy bilimlarni, san'atni egallash, harb, savdo, dehqonchilik ishlari va hunarni o'rganish, odob-axloq qoidalariga rioya etish, farzand tarbiyasi, saxovat va juvonmardlik kabi ko'plab masalalarni o'z ichiga oladi. Asarda hunar va ilm jamiyat taraqqiyotining asosiy omillari deb qaraladi. Odamlar 3 guruhga bulinib, ularning jamiyatda tutgan o'rni belgilanadi; odamlarning fazilatlar ham 3 guruhga bulinadi: aqllilik, haqgo'ylik, juvonmardlik.

Kaykovus dunyodagi mavjudotni bir-biri bilan bog'liq va murosasiz deb talqin qiladi. U kishi ruhiyatini ham 2 guruhga bo'ladi: jismoniy sezgini modda, ruhiy hissiyotni esa «jon» bilan bog'laydi va bularning birini moddiy, ikkinchisini ruhiy hayot mahsuli deb ko'rsatadi. Uning fikricha, dunyodagi hamma narsalar yaralishi va mohiyat e'tibori bn ilohiydir. Zero, inson Allohni tanimoq uchun avvalambor o'zini bilmog'i, ya'ni «sozga qarab sozandani tanimog'i lozim», deydi. Bu kabi masalalar kitobda ixcham hikoyatlar, rivoyatlar, she'r va latifalar, maqol va hikmatlar yordamida bayon qilinadi.²

«Qobusnoma» rus va G'arb sharqshunoslarining, Sharq olimlari va

¹ Habib Abdunazar. «Qobusnoma». O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 11-jild «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2005, 33-bet.

² Kaykovus. Qobusnoma. Nashrga tayyorlovchilar: S.Dolimov, U.Dolimov. –T.: «O'qituvchi» NMIU, 2006

pedagoglarining diqqatini anchadan beri o'ziga tortib keladi. Asar turk (1432, 1705), uyg'ur (1786-87), nemis (1811), o'zbek (1860, Ogahiy tomonidan), tatar (1881), fransuz va rus (1886) tillariga tarjima kilingan. Ogahiy tarjimasining 2 qo'lyozma nusxasi O'zbekiston FA Sharqshunoslik institutida, yana bir qo'lyozma nusxasi Sankt-Peterburgda Saltikov-Shchedrin nomidagi Xalq kutubxonasida saqlanadi. «Qobusnoma»ning Subutoy Dolimov tomonidan hozirga o'zbek tiliga o'girilgan nusxasi Toshkentda 3 marta nashr qilingan.¹

Yusuf Xos Hojib ham shu davrda yashab ijod etgan mutaffakkirlardan biri bo'lib, siyosiy yetakchilikka doir bir qator fikrlar bildirib o'tgan. Uning (asl ismi Yusuf) (taxm. 1020-1021, Bolosog'un) — turkigo'y shoir, mutafakkir, davlat arbobi. Uning hayoti va faoliyati haqida ma'lumotlar beruvchi yagona manba xam «Qutadg'u bilig» kitobidir. Ushbu kitobga ko'ra, u zamonasining barcha asosiy ilmlarini atroflicha urgangan, arab va fors tillarini mukammal bilgan. Mahmud Koshg'ariy kabi turkiy tilning mavqeini oshirish, uning madaniy-adabiy hayotdan o'ziga munosib urin egallashi uchun kurashgan.

Uning «Qutadg'u bilig» («Saodatga yo'llovchi bilim», 1069-1070) asari islomiy turkiy adabiyotni boshlabgina bermay, uni yangi taraqqiyot bosqichiga ham ko'tardi. U nafaqat turkiy xalqlar adabiyoti an'analari, balki qardosh xalqlar, jumladan, forsiy adabiyot tajribalarini ham ijodiy o'zlashtirgan holda yaratilgan. «Shohnoma» kabi mutaqqorib vaznida yozilgan va «Turkiy Shohnoma» nomi b-n shuhrat qozongan (73 bob, 6520 bayt va to'rtliklardan iborat).

Qoraxoniylar hukmdori Tavg'och Bug'roxiy mutafakkirga «Xos Hojib» («Eshik og'asi») unvonini bergan. Shundan keyin shoir «Yusuf Xos Hojib» nomi bilan mashhur bulgan. Shoir umrining oxiri qoraxoniylar davlatining tanazzuli davriga to'g'ri kelgan, shunga muvofiq hayoti ham og'ir kechgan. Shoirning Qashqardagi maqbarasi ziyoratgohga aylangan.

Yusuf Xos Hojib (XI-asr) hozircha bizga ma'lum bo'lgan yagona didaktik badiiy-falsafiy «Qutadg'u bilig» («Saodatga boshlovchi bilim») asari bilan

¹Habib Abdunazar. «Qobusnoma». O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 11-jild «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2005, 33-bet.

mashhur. Asar 13,5 ming misradan iborat bo'lib, turkiy tilda yozilgan, muqaddima, xotima va 73 bobni o'z ichiga olgan asosiy qismdan iborat.¹ Asosiy qism mazmuni va mundarijasiga ko'ra asarni mintaqada adabiyotining birinchi bosqichida yaratilgan turkiy tildagi islom ma'naviyatining badiy-falsafiy, ijtimoiy, axloqiy qomusi deb atash mumkin. Unda odob-ahloq, ilm-ma'rifat, bola tarbiyasi, jamoat joylarida o'zini qanday tutish, so'zning ahamiyati va qadri, mehmondorchilik qoida, turmush tarzi va inson ma'naviy olamining yana boshqa ko'plab masalalari bayon qilinadi. Yusuf Xos Hojib markazlashgan kuchli davlat tuzish tarafdori bo'lgan. Shunga ko'ra asarda shunday davlat uchun kurashuvchi donishmand, adolatli hukmdor haqidagi g'oyani olg'a suradi. Xalq va davlat, davlat boshlig'i va fuqaro, olim va hokim, qo'shni davlatlar bilan iqtisodiy, madaniy aloqalar, hukmron tabaqalarning hokimiyat, xalq oldidagi burchi haqida yozadi. Ziyolilar, dehqonlar, chorvadorlar, kosib hunarmandlar, savdogarlar, kambag'al-qashshoqlar va boshqa barcha ijtimoiy guruh, toifa va tabaqalarning hayot tarzlari, dunyoqarashlari, odatlari, ahloqlari haqida ham qimmatli materiallar bor.

Asar(doston)da falakkiyot, geografiya, tarix, ahloqshunoslik, etnografiya, ilmu nujum, huquqshunoslik, tibbiyot, riyoziyot, handasa, jabru muqobila va ijtimoiyyot fanlarini o'rganishning ahamiyatiga ham to'htalangan

Asarning asosiy qahramonlari quyidagi to'rt timsoldan tashkil topgan: 1) Adolat – u bosh hukmdor, uning nomi Kuntug'di, u quyoshdan barchaga barobar nur taratadi; 2) Davlat – turkiyda Qut, u bosh vazir, uning ismi Oyto'ldi. Qut yoki Davlat ichki, mazmuniy tushuncha bo'lib, Boylik, Baraka, Omad, Quadrat ma'nolarini o'zida jamlagan, hukmdorning tayanchi, uning beliga quvvat, ko'ziga nur, mulkiga farovonlik bahsh etuvchi bosh maslahatgo'y va nozir. Ammo Oyto'ldining umri foniy, Davlat, Baxt, Omad degan narsalar poydor emas, osmondagi oy singari goh to'lib balqiydi, goh hilol singari noziklashib, quvvatdan ketadi, orada ko'rinmay qolishi ham mumkin. Oyto'ldi xastalanib o'lgach, O'gdulmish uning o'rinbosari, hukmdorining yaqin maslahatchisi bo'lib qoladi.

¹ Ochilov E. «Qutadg'u bilig». O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 11-jild «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2005, 170-bet.

O'gdulmish Aql va Bilim ramzi. Agar Boylik, Omad, Baxt o'tkinchi bo'lsa aql va bilim ularning o'rnini bosa oladi. Bu yerda Aql va Bilim uchinchi timsol bo'lib keladi. Asli asarning bosh qahramoni O'gdulmish, ya'ni Aql va Bilimdir. Shu sababli dostonning asl nomi ham «Qutadg'u bilig» ya'ni «Baxtga eltuvchi bilim» deb atalgan. Baxt, qut-baraka, omad, qudrat manbai bo'lish bilim bilan bog'liqdir; 4) Qanoat. Agar insonda, jamiyatda qanoat bo'lmasa uning barcha hosiylari bir pul, oqibati ayanchlidir. Qanoatning ismi O'zg'urmish bo'lib, u Oyto'ldining O'gdulmishning qarindoshidir. Ammo Oyto'ldi qarindoshini eslamaydi, Baxt va Omad Qanoatni xotirga keltirmaydi. Hukmdorga (eligga) O'zg'urmish qarindoshi haqida O'gdulmishni eslatadi, ya'ni Adolat Aql yordamida Qanoatdan habar iopadi va uning suhbatini istaydi. Asar oxirida O'zg'urmish ham xastalanib vafot etadi. Kuntug'di va O'gdulmish ya'ni Adolat va uning bosh maslahatchisi Aql qoladilar¹.

Jamiyat, xalq baxti uchun, adolat tantanasi uchun o'z umrini bag'ishlash asarning bosh yo'nalishi hisoblanadi. Uning suyukli qahraomni O'gdulmish, ya'ni Aql va Bilim egasi umrini Adolat xizmatiga bag'ishlaydi.

Asar hayot bilan uzviy bog'liq hayot haqiqatlari bilan to'lgan. Unda o'sha zamon turmushining barcha qirralari, ikir-chikirlari ziddiyatlari o'zifodasini topgan. O'sha davr ijtimoiy ahloqiy voqeligining ko'p xilma-xil jihatlari asar mazmuniga singib ketgan Yusuf xos Xojib fikricha, fuqarolarning bilimlari aql zakovati, o'quv va idrokiga qarab turli darajada bo'ladi. Ularning jamiyatdagi o'rnini ham shunga muvofiq. YA'ni chuqur bilimli odamlar boshqaruvchi-rahbar, sayoz bilimlilar esa boshqariluvchi-fuqaro. Jamiyat a'zolarining mavqei ana shu bilim, aql zakovat, uquv-idrok darajasiga ko'ra belgilansagina chinakam taraqqiyotga erishiladi. Bu to'g'rida u «shohlikka da'vogarlar onadan ajib bir iste'dod bilan tug'iladilar va ular darhol yaxshi-yomonni ajratish fitratiga ega bo'ladi. Bu ndaylarga Xudo idrok, farosat va yumshoq bir ko'ngil ato etadi, qolaversa yaxshi ish yuritish o'quvi bilan ham siylaydi»² deb yozgan edi.

¹ Buyuk siymolar, allomalar. 1-kitob, -T.: «Xalq merosi», 1995, 64-65-betlar.

² Yusuf Xos Xojib. Qutadg'u bilig. -T.: «Fan», 1971, 329-bet.

Yusuf Xos Xojib rahbar tanlashda til va muomalani bilimdan keyingi o‘ringa qo‘yadi. Chunki davlat boshqaruvida bilim va aql-zakovat qanchalik ahamiyatli bo‘lsa, muomala madaniyati ham shunchalik muhim. Uning ta’kidlashicha, davlat boshqaruvida muayyan darajada muvaffaqiyatga erishmoq uchun rahbar amalda ham so‘zda ham ezgulikka intilishi lozim. So‘zi va amali bir-biriga zid bo‘lgan rahbar el nazaridan qoladi. Oqibatda mamlakatda parokandalik kelib chiqadi davlat tanazzulga uchraydi.

Asarda rahbarga xos bo‘lgan boshqa xususiyatlar va ular keltiradigan foydalarga ham to‘xtalib o‘tiladi.

Umuman asarda jamiyatni tubdan o‘zgartirish emas, balki uni muvofiqlashtirish, uyg‘unlashtirish unga takomil bahsh etish haqida so‘z boradi. U badiiy jihatdan yuksak darajada yozilgan voqealardagi hayotiylik va shoir hayoti o‘zaro nihoyatda uyg‘unlashib ketgan. Asar nafaqat tilshunoslik, adabiyotshunoslik va tarix nuqtai nazaridan, balki barcha ijtimoiy fanlar uchun ham katta ahamiyatga ega.

Xullas bu asar mintaqa siyosiy qarashlar rivojining ushbu bosqichi uchun ma’lum ma’noda yakunlovchi asar bo‘ldi. U xalqaro maydonda ham tan olingan va dunyodagi juda ham ko‘p xalqlar tillariga tarjima qilingan.

Shunday qilib, yuqoridagilardan ko‘rinadiki, IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoda ilm-fanning boshqa sohalarida bo‘lgani kabi tarix, adabiyot va badiiy ijod ham yuksaldi. Jahon ilm-fani va madaniyati xazinasiga bebaho boylik bo‘lib qo‘shilgan o‘lmas asarlar yaratildi.

Nizomulmulk (1017, Tus - 1092, Nahovand) — Saljuqiylar davlati arbobi Abu Ali al-Hasan ibn Ali ibn Ishoq at-Tusiyning unvoni, «Nizomulmulk», ya’ni mulkning nizomi, tartibi nomi bilan shuhrat qozongan. Nishopur va Marvda o‘qib, voyaga yetgach, Balxga borib, Ali ibn Shodon xizmatiga kiradi. Keyinchalik u Dovud ibn Mikoilga dabir bo‘ladi. Saljuqiylar shohi Alp Arslon saroyida vazirlik mansabigacha ko‘tariladi. 1072 yili Alp Arslon o‘ldirilgach, uning o‘g‘li, 17 yoshlik Malikshoh (1072-1092 yillar) saroyida Nizomulmulk vazirlik qilib, qariyb davlatning hamma ishlarini o‘zi olib borgan. Malikshoh uni o‘z homiysi — Otabek

deb atagan. Nizomulmulk mamlakatda yirik mulkdorlar va qabila boshliqlarining ayirmachilik (separatistik) harakatlariga qarshi kurashib, davlatni boshqarish ishlarini markazlashtirish siyosatini o'tkazgan. 1067 yili Bag'dodda «Nizomiya» aqoid va huquq madrasasini qurdiradi. 1091 yili «Siyosatnoma» («Siyar ul-muluk») asarini yozadi. Unda davlat boshqaruviga aloqador qariyb hamma qoida va qonunlar, usul va vositalar, qozi va qozixona ishlari, qo'shin va sarbozlar, xizmatchi va shaxsiy sarbozlar masalalari, saroydagi soqchilaru posbonlar vazifalari, ularning maoshlari, pochta va ayg'oqchilik (razvedka) ishlari, ularning moddiy jihatlari, hatto shohning oilaviy ishlari, soliq va hiroj, zakot va vaqf masalalari ham o'rin olgan. Asarning asosiy g'oyasi shundan iboratki, vazir Nizomulmulk. shoh va hokimlarni adlu insofga, sulh va muruvvatga, davlatni oqilona boshqarib, qat'iy qoida va tartib o'rnatishga, amaldorarni vijdonli, pok, halol va iymonli bo'lishga, mamlakat obodonligi, uning ahli farovonligi, tinchlik va totuvligini ta'minlash uchun harakat qilishga da'vat qiladi. Nizomulmulk Bag'dod safari yo'lida yollangan qotil tig'idan halok bo'ladi.

Adib Nizomulmulkning "Siyosatnoma" yoki "Siyar ul-muluk" asari saljuqiylar sulolasining davlat boshqaruvi sohasidagi siyosiy dasturi sifatida e'tiborga sazovor manba bo'lib, u o'zbek milliy davlatchiligi tarixida ham alohida qiymatga egadir. Asar IX-X asrlarda hukm surgan sulolaning siyosiy dasturi bo'lib, unda o'rta asrlarda O'rta Osiyo va Eronda VI asrdan to XI asrgacha sodir bo'lgan muhim siyosiy voqealar bayoni va g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlar yuzasidan tarixiy ma'lumotlar keltiriladi. Asarda uchraydigan tarixiy-falsafiy va davlat boshqaruviga oid ma'lumotlarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- siyosiy tarixga oid ma'lumotlar
- ijtimoiy-iqtisodiy hayotga doir ma'lumotlar;
- ma'naviy hayotga tegishli ma'lumotlar;
- islom mazhablari o'rtasidagi kurashlar tarixiga oid ma'lumotlar;
- boshqaruvning diniy va dunyoviy tamoyillari;

- siyosat falsafasi, o'zini o'zi boshqaruv institutlari.¹

Qonun ustuvorligining siyosiy-amaliy jihatlarini qonunlarning podshoh va sultonlar tomonidan qabul qilinishi siyosiy faoliyat bo'lib, ular xalq (raiyat) hayoti bilan bog'liq. Birinchidan, podshoh tomonidan farmonlar yozilib, xalqqa tanishtirib boriladi. Bu oddiy hol bo'lib ko'rinsada, hozirgi siyosatshunoslik uchun ham qo'l keladi. Biroq u jamiyat hayotiga monand tarzda mudom ishlab turishi shart. Ana shunda siyosiy institutlar, shu jumladan, ularning ijrosini ta'minlovchi idoralar ham hayot talablaridan orqada qolmaydi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov haqli ravishda, har qanday farmon, farmoyishlar, qarorlar fuqarolarning dunyoqarashiga aylanishi uchun tashviqot va targ'ibot ishlariga ilmiy-amaliy jihatdan yondashish muhimligini ta'kidlagan edi. Ikkinchidan, agarda farmonga salbiy munosabat bildirilsa yoki uning ijrosi cho'zilib ketganligi to'g'risida xabar yetsa, podshoh mas'ul va mutasaddi shaxslar uchun jazo belgilagan (ular o'z yaqinlari bo'lsa ham). Chunki, markazlashgan davlat siyosati shoh farmoniga so'zsiz itoat etishni talab qiladi. Bu o'sha davrning eng oliy siyosati edi, albatta.

Uchinchidan, shoh, sulton farmonlari barchaga taalluqlidir, uni hatto hukmdorga yaqin odamlar ham buzishi mumkin emas. Shuning uchun ham Nizomulmulk qonun va siyosat oldida hammani teng, deb qaragan. "Siyosatnoma" asarida davlat boshqaruvi haqida keng fikr yuritilgan, undagi rivoyatlar, hikoyatlar, aforizmlar Nizomulmulkning jamiyat va davlatni boshqarish, falsafa, axloq masalalariga oid javoblaridir. Asarda jamiyat va davlatni boshqarish masalalari falsafiy-axloqiy yondashuv orqali ochib berilgan. Donishmandning siyosiy-falsafiy qarashlarida podshoh (sulton), xalq (raiyat) va shaxs (fuqaro) o'rtasidagi munosabatlarda uyg'unlikni ta'minlash asosiy o'rinda turgan.

Nizomulmulk markazlashgan davlat qurish tarafdoridir. To'g'ri, u markazlashgan davlat barpo etish uchun ijtimoiy-siyosiy loyihalar, istiqbolli dasturlarni tavsiya qilmaydi, ammo islohotlar o'tkazishni o'rta tashlaydi. Uning

¹ Nizomulmulk, Siyosatnoma yoki Siyar ul-muluk, -T., 1997.

mushohadalari podshoh (sulton) bilan xalq (avom), amaldor(xizmatchi)lar bilan kishi(fuqaro)lar o'rtasida murosa munosabatlarini qaror toptirishga qaratilgan.

Insonparvar podshoh davlatni uzoq boshqaradi, xalq farovonligini o'ylaydi, zo'rlik ishlatmaydi. «Kim insonparvarlikka chindan intilsa, u hech qachon yomon ishlar qilmaydi... Kim insoniylikni sevsa, undan yuqori narsa yo'q deb hisoblaydi», degan g'oyani o'z davrida alloma Konfusiyligari surgan edi. Bunday g'oyalarni Nizomulmulkda ham kuzatish mumkin. Demak, insonparvarlik shaxslararo munosabatlardangina iborat emas, u jamiyat va davlatni boshqarishga ham taalluqli voqelikdir. To'g'ri, ba'zan Nizomulmulk insoniylikni kichiklarning kattalarga hurmat ko'rsatishi, deb ham talqin qiladi. Keyin ushbu talqinni podshoh (sulton) va xalq (raiyat), amaldor (xizmatchi) va fuqaro (inson), davlat va shaxs munosabatlariga ko'chiradi. Qanday bo'lmasin, jamiyat va davlatni boshqarishda insoniylik, insonparvarlik tamoyillariga tayanishga da'vat - Nizomulmulk ijodidagi olijanob jihatdir.

Xalq, odamlar, amaldorlarning qanday sifatlarni o'zida shakllantirishi yoki ulug'lashi podshoh (sulton)dagi fazilatlarga bevosita bog'liqdir. Bu o'rinda Sharq xalqlariga xos bo'lgan «aravaning katta g'ildiragi qayerdan yursa, kichik g'ildirak ham shu yerdan yuradi», degan maqol esga tushadi. «Xalqni o'z ketidan ergashishga majbur qilish mumkin, lekin u nima uchun majbur qilinayotganini bilmasa, davlat uchun yomondir». «Hukmdor o'z axloqini tuzatmasa, u kichik odam, xalq axloqini ham tuzatolmaydi», "badaxloqlik oxir-oqibatda davlatni, boshqaruvni tanazzulga olib keladi..."¹ Bunday siyosiy qarashlar Nizomulmulk asarining maqsadini ifoda qiladi.

Agar Nizomulmulk Makiavelli, hukmdor xalqni, davlatni kuch bilan, qurol ishlatib ushlab turishi zarurligini ta'kidlasa, Nizomulmulk siyosiy jihatdan boshqarishni yoqlaydi. Shubhasiz, Nizomulmulk Makiavelli qadimgi Rim va Gretsiya davlatlarida shakllangan idora usullarini o'rganib, ulardan zarur xulosalar chiqarib, despotiyani ilgari suradi. Hokimiyatda turli manfaatlar, intilishlar to'qnashadi, ularning barchasini qo'llab-quvvatlash podshoh (sulton)ni

¹ Nizomulmulk, Siyosatnoma yoki Siyar ul-muluk, -T.:, 1997, 20-bet.

tilyog'lamalik qilishga, natijada umummanfaatlarni unutishga majbur qiladi. Shu nuqtai nazardan, Nizomulmulk Makiavelli hukmdor kuch ishlatishga majbur, deb hisoblaydi.

Shunday qilib, davlatni boshqarish o'sha davrga nisbatan o'ziga xos funksiyalarni bajardi. Maqsadni belgilash va siyosiy dasturlashtirish shularning asosiylaridir. Bu funksiyalar bir-birlari bilan chambarchas bog'liq. Ijtimoiy qatlam, kichik guruh manfaatlariga mos keluvchi maqsadlar tizimini, shuningdek, uni amalga oshirish uchun zarur strategiya va taktikani ishlab chiqish - har qanday siyosatning asosiy vazifasidir.

II-BOB. Temur va Temuriylar davrida davlat boshqaruvi munosabatlari.

2.1.A.Temurning davlat boshqaruvi munosabatlari to'g'risidagi g'oyalari

Uzoq vaqt mo'g'ul mustamlakachiligiga qarshi olib borilgan kurash XIV asrning ikkinchi yarmiga kelib sohibqiron Amir Temur boshchiligidagi mustaqillik uchun kurashlar g'alabasi va Movaraunnahrda yagona markazlashgan davlat barpo etilishi bilan yakunlandi.

Amir Temur davlati o'z davrida Yevropa va Osiyodagi eng yirik, mustahkam va rivojlangan davlat sifatida tanildi. Sohibqiron vafotidan so'ng ham XVI asr boshiga qadar uning avlodlari mamlakatga hukmronlik qildilar.

Movaraunnahr va Xurosonda Amir Temur va temuriylar hukmronligi davri (XIV asrning 70-yillari XV asr) ilm-fan va madaniyat rivojlangan yillar bo'ldi. Bu davr mo'g'ullar istilosi natijasida uzilib qolgan ilk uyg'onish davrining davomi bo'lib, tarixda so'nggi uyg'onish davri deb nom olgan. Uning ma'naviy-madaniy hayotida insoniy qadriyatlarning yuksak hislatlari – ilmga intilish, bilimni kuchaytirish, aqlni ulug'lash, insoniylik, ruhiy poklanish ahloqiy kamolotga erishuv, adolat, ijtimoiy yuksalish, barcha uchun baxt-saodat, do'stlik birodarlik, komil jamoa va komil insonni yaratish kabi masalalar olg'a surildi. Ular muhim ilmiy tadqiqotlar, adabiyot, san'at, diniy asarlarning mazmunini tashkil etdi. Bu davrdagi olim, mutaffakkir, donishmand, san'atkorlarning ko'pchiligi shu maqsad yo'lida ijod qildi.

Ularning rahnamo va homiylari buyuk sohibqiron Amir Temur va temuriylar edi. Yurtboshimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «Muhammad Tarag'ay Bahodir o'g'li Amir Temur yoshlik chog'idan mard, dovyurak, g'ururli, o'tkir zehn va aql-idrok egasi bo'lib o'sdi. Turli dunyoviy ilmlarni harbiy san'atni egalladi. Qur'oni Karimni yod oldi. Hadis ilmini o'rgandi. Iymonli e'tiqodli, xalol pok inson bo'lib yetishdi»¹. Shunga ko'ra sovet tuzumi davrida yakka hokim kommunistik mafkura va buyuk davlatchilik shovinizmi g'oyasi asosida Amir Temurni savodsiz deb hisoblab, uning ibratomuz, ko'pqirrali faoliyati tufayli yaratilgan boy ma'naviy merosi sohtalashtirilib, undan tataylab nuqsonlar va xatolar izlashga harakat

¹ Amir Temur jahon tarixida.-T.: 1996, 12-bet.

qilinganligi tarixiy hakikatga to'g'ri kelmaydi. Savodsiz odam qanday qilib o'z davrining qimmatbaho qonunnomasi bo'lgan «Temur Tuzuklari»ni yozishi, nihoyatda keng hududda – Hind okeani sohillaridan Volga daryosigacha, Mo'g'ul dashtlaridan O'rta yer dengizigacha tashkil topgan qudratli davlatni boshqara olishi mumkin edi. Buning uchun nafaqat odil, mohir arbob, dastavval insonparvar, qonun-qoidalarini to'la egallagan, har sohada bilimdon va donishmand podshoh zarur edi. «Temur Tuzuklari» sohibqiron naqadar iste'doli, ko'pqirrali, o'qimishli, hukmdor ekanligining yorqin ifodasidir. Uning shariat qonunlarigatayanib odilona hukmronlik qilgani, qonunchilikni har tomonlama rivojlantirib, davlatni «adolat va insof bilan boshqarib, tangrining yaratgan bandalarini» o'zidan rozi etganligini aolohida qayd etish zarur. Sohibqiron saltanat tjini kiygach, o'z iborasi bilan aytganda, tinchligu sog'ligini yo'qotib, huzur-xalovatidan voz kechib, ranju-mehnat va azmu-jazm bilan ish tutgan hukmdor edi. «Hayr-ehson ishlarim bilan, - deb ta'kidlaydi odil amir, - odamlar ko'nglidan joy oldim.to'g'ri siyosat va insof bilan sipohiylarni raiyatni umid va qo'rqinch orasida saqladim. Fuqaro va qo'l ostidagilarga rahmdillik qildim, sipoxiylarga in'omlar ulashdim. Zolimlar yetkazgan ashyoviy va jismoniy zararlarni isbotlaganimdan keyin, ularni shariatga muvofiq odamlar o'rtasida muhokama qildim va bir gunohkorning o'rniga boshqasiga jabr-zulm o'tkazmadim»¹.

Buyuk sohibqiron saltanati Yevroosiyodagi eng so'nggi yirik davlat bo'lib, uning hukmronlik qilish qobiliyati yolg'iz o'ziga xos, barcha erishgan yutuqlariga o'z dahosi bilan yetgan hukmdor. Uning ma'muriy va siyosiy islohotlari, davlatni boshqarish tamoillari adolatga asoslanib amalga oshirilgan. Musalan, u farmon va farmoyishlarini chiqarishda o'ziga xos alohida diplomatik tamoillar ishlab chiqqan va yangi usulda joriy qilgan. Amir Temurning bu sohada qilgan eng katta ishlaridan biri davlatchilik g'oyasini yuqori darajaga ko'tarib, uni boshqarishda yirik islohotlar o'tkazgan.

Ayniqsa davlatning bosh tayanchi harbiy kuchni takomillashtirish, muayyan harbiy taktikaga asoslangan, zamonaviy qurol-aslaha bilan ta'minlangan, tartibli

¹ Amir Temur jahon tarixida.-T.: 1996, 12-bet.

armiyani yaratishda juda katta ishlarni qilgan. Sohibqoron shubxasiz ulug' harbiy daho, u o'zining nihoyatda chidamliligi bilan mashaqqatli yurishlarga bardosh berib boshqalarga namuna bo'lgan. Sohibqironning harbiy san'ati va mahorati shuncha zo'r bo'lganki, uni keyingi ko'pgina yirik sarkardalar o'rganib amalda qo'llaganlar umuman, Amir Temurning davlatni boshqaruv uslubi va harbiy sarkardalik san'ati juda ko'p g'arb va sharq hukmdorlariga ma'qul bo'lib, bobokalonimizni buyuk davlat arbobi sifatida tan olishgan va uning boshqarish uslub va g'oyalarini qabul qilishgan. Ko'plab dalillarga asoslanib aytish mumkinki sohibqiron o'zining ijtimoiy siyosatida va etnomadaniyat sohasida inson jamiyat va tabiatga cheksiz g'amxo'rlik namoyon qilgan. Chunki har bir davlatning kuch-quvvati dastavval xalq farovonligiga, mamlakatning osoyishtaligiga bog'liq. Sohibqiron yaxshi tushunganki, raiyat qanchalik to'q-farovon bo'lsa, davlat shunchalik baquvvat bo'ladi, uni hech qanday dushman yenga olmaydi. Mazkur g'oyaga tayangan Temur mamlakatni boy qilish, farovon hayot o'rnatish siyosatini olib borgan. Uning barcha ishlari jiddiy va izchil xalqparvarlik ruhi bilan sug'orilgan.

Markaziy Osiyo xalqlari va bo'ysundirilgan mamlakatlar aholisining xo'jalik, madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy tamoyillari katta imperiyani boshqarishda nafaqat zo'r mahorat va gumanistik faoliyat talab qilibgina qolmay. Teran va keng tafakkurli, bilimdon, yuksak madaniyatli va odil arbob bo'lishini taqozo etgan. Shuning uchun ham sohibqiron barcha zabt qilingan mamlakatlarda millati, irqidan qat'iy nazar, har yerning tabiati, har el va shaharning rasm-udumlari, mijozidan voqif bo'lib turgan, har bir mamlakatning ahvolini, turish turmushini, kayfiyatini yaxshi bilgan.

Temurning tashqi siyosatdagi donoligi mahalliychilik yoki qabilaviy hakimlikdan ustun bo'lgan geosiyosiy qonuniylikni yuzaga keltirishdan iborat bo'lgan. Tadqiqotchilarning ko'rsatishicha, Sohibqiron faqat bir madaniyatni majburan kiritmasdan aksincha turli madaniyatlarni qo'shib, tarixda birinchi bo'lib global Yevroosiyo g'oyasini ishlab chiqqan edi. Amaliy jihatdan zo'r ahamiyatga ega bo'lgan bu siyosat turli etnomadaniy hislatlarni birlashtirib qudratli kuch hosil

qilgan. U donolik bilan ko'chmanchilarning harakatchanlik qobiliyatini, mo'g'ullarning jasoratini, o'troq aholining bunyodkorligini mo'minlarga xos iymon-e'tiqodni o'zida mujassamlashtirgan siyosatni amalga oshirgan. Amir Temurning geostrategiyasi va olib borgan islohotchilik faoliyati va harbiy yurishlari to'g'ridan-to'g'ri bo'lmasada, ma'lum ma'noda o'zga mamlakatlarga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Bunga tarixiy dalillar yetarli.

Davlat kuch-qudratining muhim omillaridan biri unda qonun ustuvorligi ta'minlanganligidir. Mamlakatda qonun oldida hamma bir – vazir ham, sarkarda va lashkar ham, savdogar ham, oddiy fuqaro va oliy martabali shahzoda ham. Sohibqiron qonunga tayanib amiru ulamolar, vaziru lashkarboshilar, olimu donishmandlar bilan kengashib ish yuritgan.

Temurga zo'r obro' keltirgan katta ijtimoiy siyosat shundaki, u barcha raiyat ahvolidan habardor bo'libgina qolmay, o'z iborasi bilan aytganda «ulug'larga og'a qatorida, kichiklarini farzand o'rnida ko'rib» munosabat qilgan, «Adolat va insof bilan tangrining yaratgan bandalarini» o'zidan rozi etgan. «Temur Tuzuklari»da Sohibqiron shunday deydi: «Qaysi mamlakatni zabt etgan bo'lsam o'sha yerning obro'-e'tiborli kishilarini aziz bildim, sayidlari, ulamolari, fuzalo va mashoyihiga ta'zim bajo keltirdim va hurmatladim, ularga suyurg'ol, vazifalar berib, maoshlarini belgiladim; o'sha viloyatning ulug'larini og'a-inilarimdek, yoshlari va bolalarini bo'lsa, o'z farzandlarimdek ko'rdim»¹.

Faqat chinakam gumanistik xis-tuyg'ularga ega bo'lgan inson va elga mehr qo'ygan hukmdor saltanatni idora etishda o'ziga qarashli har mamlakatda yaxshi kishilarga yaxshilik qilgan, nafsi yomonlar, buzuqlar va ahloqsi odamlarni mamlakatdan quvib chiqargan. «Har mamlakatda adolat eshigini ochdim, - deb yozadi Amir Temur, - zulmu sitam yo'lini to'sdim. O'z erki bilan menga bo'ysungan viloyat hokimlariga o'sha yurt hukumatini qaytarib berdim va ularni in'omu ehson bilan qadrlab o'zimga mute' qilib oldim, bo'ysunmaganlarini esa

¹ Temur tuzuklari.-T.: «G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti», 2011, 118-119-betlar.

qilmishiga yarasha jazoladim. Odil, oqil va uddaburon kishilarni ularga hokim etib tayinladim «¹.

Bunday nihoyatda oqilona insonparvarlikka asoslangan ichki va tashqi siyosat Sohibqironga jahon miqiyosida yuksak obro‘ keltirgan va Hind okeani sohillaridan Volga bo‘ylarigacha, Mo‘g‘ul dashtlaridan Bolqon va O‘rta yer dengizi subtropik tuprog‘igacha buyuk qudratli imperiyani bunyod etishda eng muhim omil bo‘lib xizmat qilgan edi. O‘z siyosatini donolik bilan amalga oshirish maqsadida asl zotli, shijoatli va aql-farosatli er yigitlarni atrofiga birlashtirgan. Ular go‘yo bir tandek, barchalarining maqsadlari, so‘zlari va ishlari bitta bo‘lgan. Amir Temur qaysi mamlakatni zabt etmoqchi bo‘lsa, xatoga yo‘l qo‘ymaslik uchun, to‘g‘ri tadbir va kengash bilan har qadamni ko‘p o‘ylab, sergaklik va ehtiyotkorlik bilan ish tutgan. Eng muhimi, qaysi ishni chorayu tadbir bilan bitirishning iloji bo‘lsa, unda qilich ishlatmagan.

Adolat tarafdori va xalqparvar Sohibqiron mamlakatda jabr-zulm va fisqu fasod bo‘lmasligi, osoyishtalik va farovon turmush o‘rnatilishi tarafdori bo‘lgan. U o‘z oldiga mamlakatda adolat o‘rnatish, tartib va tinchlikni mustahkamlash, fuqaroning turmushini yaxshilash, yurtimizda qurilishni kuchaytirish, davlatni rivojlantirishni maqsad qilib qo‘ygan barcha hokimlarga qabih xatti-harakati, zolimlik va zo‘ravonlikdan, raiyatdan mol-xiroj yig‘ishda ularni og‘ir ahvolga solishdan yoki mamlakatni qashshoqlikka tushirib qo‘yishdan saqlanish zarurligini amr etgan. Chunki, uning ta’rificha, aholini xonavayron qilish davlat xazinasining qashshoqlashishiga olib keladi, bu esa sipohning tarqalib ketishiga va saltanatning kuchsizlanishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun soliq ishlarida dehqonning hosil va daromadlarini hisobga olgan holda ularning roziligi bilan xiroj tuzugiga muvofiq odilona ish tutish qat’iyan talab qilingan soliq to‘plovchi oliq-soliqni buyruq bermay va yaxshi so‘z bilan olishi kaltak, arqon ishlatib, ishni urish-so‘kishgacha olib bormasligi, ularni band etib, zanjir bilan kishanlamasligi amr qilingan.

Xalq g‘amida hukmronlik qilgan Amir Temur «Kimki biron sahroni obod qilsa birinchi yili undan hech narsa olmasinlar, ikkinchi yili raiyat o‘z roziligi bilan

¹ Temur tuzuklari.-T.: «G‘ofur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti», 2001, 119-bet.

berganini olsinlar. Uchinchi yili esa, oliq-soliq qonun-qoidasiga muvofiq hiroj yig'ilsin»¹, deb hukm chiqargan. Shunisi muhimki, uning buyrug'i bilan har yer va elning amaldorlari oddiy fuqaroga jabr-zulm qilsa va shu orqalibechoralarga zarar yetkazgan bo'lsa, bunday vaqtlarda yetkazilgan zararni amaldordan undirib, jabr ko'rganlarga berish shart deb hisoblangan. Harob bo'lib yotgan yerlarning egasi obod qilishga qurbi yetmasa unga turli asboblari va kerakli narsalar berilsin, toki o'z yerini obod qilib olsin deb hukm chiqargan. Sohibqiron bog'-rog'lar yaratish savob ish ekanligini doimo qayd etib, hamishalig' ta'kid etur edim: xon bo'lsang bog' yarat, gadoy bo'lsangda bog' yarat – bir kunmas bir kun mevasini tatursan, deb ta'kidlagan.

Amir Temur Movaraunnahr va Xurosonning katta-kichik katta irrigatsiya inshootlari, suv omborlari va xovzlar qurdirib, o'lkaning suv tanqisligi kuchli bo'lgan hududlarini suv bilan ta'minlagan. Sohibqiron el-yurt obodonligi uchun xarob bo'lib yotgan yerlarda korizlar qurishni, yo'l ustida har manzilgohga rabotlar qurishni va yo'llarni tuzatish va saqlash ishlarini bajaruvchi soqchilar qo'yishni buyurgan. Yo'lovchilar g'aflat bosib mollarini o'g'irlatib qo'ymasligi uchun ularni muhofazalash vazifasi ham o'sha soqchilar zimmasiga yuklangan. Bozor iqtisodiga katta e'tibor bergan Sohibqiron savdogarlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlagan. Temur o'gitlarida shunday hukm mavjud: «Sarmoyasi qo'lidan ketib qolgan savdogarga o'z sarmoyasini qaytadan tiklab olishi uchun xazinadan yetarli miqdorda oltin berilsin...»². Uning farmoni bilan har bir mamlakatga va diyorga savdogarlar va karvonboshilar tayinlanib, ular o'sha mamlakatlarda yashovchi kishilarning ahvoli, turish-turmushi to'g'risida habar yetkazib turgan. Karvonlarga hujum qilgan hamda talaganlar qattiq jazolangan. Narhlar ustidan nazorat o'rnatilgan – bozorlarda narhlarni haddan tashqari ko'tarib yuborganlarni ham qattiq jazolashgan. Bunday siyosat ichki va tashqi savdo rivojlanishiga va Buyuk Ipak yo'lini mo'g'ul istilosidan keyin qayta tiklashga imkon yaratdi.

¹ O'sha asar. 124-bet

Amir Temur amalga oshirgan muhim ijtimoiy tadbirlardan biri shuki, yangi qishloqlar va qal'alardan tashqari, shaharlar atrofida hovli joylar, bog'larbarpo qilgan, har bir shahar va qishloqda masjid, madrasa, va xonakohlar bino qilingan, faqiru miskinlarga langarxonalar, ya'ni yo'lovchilar qo'nib o'tadigan joylar, kambag'al, yetim-yesirga ovqat beriladigan g'aribxonalar solingan, kasallar uchun shifoxonalar qurilgan va ularga xizmat qilish uchun maxsus tabiblar tayinlagan, ma'muriy dor ul-amorat (hukmdor saroyi), dor ul-adolat (qozixona) va boshqa imorat va inshootlar qurilganyu butun mamlakatda soliqlar tizimimuayyan darajada tartibga tushgan.

Sohibqiron amalga oshirgan ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy tadbirlar, davlat va ijtimoiy tuzum islohotlari Markaziy Osiyo xalqlari – o'zbeklar, qozoqlar, turkmanlar, qoraqalpoqlar va boshqa etnik guruhlarining konsolidatsiya va integratsiya jarayoniga zo'r ta'sir o'tkazgan muhim omillardan biri hisoblangan. Temur va temuriylar davrida qadimgi vohalar atrofidagi cho'l hududda ishlab chiqarish xo'jaligining rivojlanishi, feodal yer va suv tizimi tufayli uzilgan aloqalar va mintaqa tarqoqligining tugatilishi, Movaraunnahr shaharlaridagi madaniyat, hunarmandchilik va savdoning rivojlanish asosida aholi etnik xaritasini o'zgartirish qabilaviy zodagonlar o'rniga yangi ma'muriy tabaqalarning paydo bo'lishi va boshqa tadbirlar o'lkada etnomadaniy va etnosiyosiy jarayonlarga kuchli ta'sir qilgan.

O'sha davrdagi Movaraunnahrni tashqi dunyo bilan bog'lab turgun karvon yo'llari bir necha tarmoqdan iborat bo'lgan: shimoliy yo'l uni Volga bo'yi va Oltin O'rda hududiga, Qozog'iston va Xorazm orqali ikkinchisi janub va janub va janubi sharqdagi mamlakatlar bilan, ayniqsa Xuroson, Eron, Afg'oniston, Pokiston va Hindiston, xatto Xitoy bilan bog'lagan yo'llar muntazam ravishda iqtisodiy-siyosiy aloqalarni olib borishga imkon yaratgan. Temuriylar davrida turli mamlakatlar bilan o'rnatilgan har xil aloqalar muhim ahamiyatga ega bo'lgan mazkur jarayonda ayniqsa musulmon mamlakatlar bilan aloqani mustahkamlashda islom dini ham sohibqironga g'oyaviy bayroq va tayanch bo'lib xizmat qilgan. Amir Temur islom asoslarini chuqur egallagan o'zining ijtimoiy-iqtisodiy siyosatida, tarbiyaviy

ishlarida dindan ahloqiy-ma'naviy omil sifatida oqilona foydalanishga harakat qilgan. «Temur tuzuklari»da diniy va ijtimoiy ong shakli jamiyatni mustahkamlashda va elatni jipslashtirishda zarur vositaligi yuiri necha bor ta'kidlab o'tilgan. Sohibqiron musulmon dini peshvolariga, ulamolarga, so'fiy shaxslarga nihoyatda hurmat bilan qaragan ularni har tomonlama qo'llab quvvatlagan.

Amir Temur dunyodagi hamma narsani biluvchi va hal qiluvchi, dastavval Olloh, qolaversa, insonning samarali tarbiyalanishi, aqliyu amaliyotini o'zlashtirib, o'zini-o'zi boshqarishi deb hisoblagan. Sohibqiron dunyoqarashida inson tarbiyasi, odob-ahloqi, uni adolatni sevishga, vatanparvarlik va insonparvarlikka o'rgatish muhim o'rin egallaydi. Shu sababli u yoshlarga bilim berish ularning aqliy faoliyatini takomillashtirish maqsadida har bir shaharda masjidni madrasalar qurish, ulamoyu domlarni moddiy rahbatlantirish siyosatini amalga oshirgan. «Yana tajribamdan ko'rib bildimki, - deb yozadi sohibqiron, - davlat agar dinu qoida asosida qurilmas ekan to'ra-tuzukka bog'lanmas ekan, unday saltanatning shukuhi, qudrati va tartibi yo'qoladi... shuningchun men ham o'z saltanatim binosini dinu islom to'ra va tuzuk asosida mustahkamladim. Saltanatni boshqarishimda uchragan har qanday voqea va ishini to'ra va tuzuk asosida ado etdim»¹.

Amir Temur o'z tuzuklarini avlodlarga namuna vorislar saltanat ishlarini boshqarishda qo'llanma sifatida foydalanar, degan umid bilan yaratgan. Uning baxtiyor farzandlari va iqtidorli nabiralari saltanat martabasiga erishgach, amal qilishi zarur bo'lgan eng dastlabki shiori quyidagicha ta'riflangan: «Davlat va saltanatimga bog'lagan mening birinchi tuzugim shulkim, Tangri taolloning dini va Muhammad mustafoning shariatiga dunyoda rivoj berdim. Har yerda va har vaqt islom dinini quvvatladim»². Tuzuklarda qayd etilganidek, «davlat agar dinu oyin (qoida va rasm-udum) asosida qurilmas ekan, to'ra-tuzukka bog'lanmas ekan unday saltanatning shukuhi, qudrati va tartibi yo'qoladi. Bunday saltanat yalang'och odamga o'xsharki, uni ko'rgan har kimsa, nigoxini olib qochadi yoxud har xal qalang'i-qasang'i odamlar tap tortmay kirib chiqadigan tomsiz, eshigi

1.O'sha asar. 68-bet.

to'sig'i yo'q uyga o'xshaydi»¹. Shuning uchun ham, - deb tariflaydi Amir Temur, - «men o'z saltanatim binosini dini islom, to'ra va tuzuk asosida mustahkamladim... jahonning turli mamlakatlari katta kichik shaharlarida islom dinini va odamlarning eng xayrlisi (hazrati Muhammad)ning to'g'ri yo'llarini targ'ib etdim.o'z saltanatimni shariat bilan bezadim»². Shu tariqa u islom dinini rivojlantirib, shariatni musulmonlar mamlakatlariga yoygan va unga ravnaq bergan.

Barcha qonun-qoidalarini Qur'on va shariat asosida takomillashtirib davlat ishlarini «doimo maslahat , kengash, tadbirkorlik, hushyorlik, ehtiyotkorlik, murosayu- madora, muruvvat va sabr-toqat bilan» yurgizgan Sohibqiron zabt qilgan o'lkalarda dastavval mahalliy zodagonlar va olim-ulamolarga tayangan, faqir-bechoralarni qo'llab quvvatlagan.

Sohibqironning muhim fazilatlaridan biri, u qaysi bir mamlakatga yurish qilmasin, avvalo o'sha mamlakatning qonun-qoidalari, turmush tarzi, siyosiy-ijtimoiy ahvoli to'g'risidagi barcha yozma manbalarni shaxsan o'zi o'rgangan va shunga mos keladigan qonunchilik asosida hukm chiqargan. Uning ta'rificha, taslim bo'lgan o'lkalarda amir hukmi bilan ajnabiy fuqarolarga diniy masalalardan ta'lim berib, shariat aqidalari va islom dini ilmlari: tafsir, hadis, musulmon qonunshunosligi-fiqhdan dars bersinlar deb har bir shaharga olimlar va mudarrislar tayinlagan. Sohibqironning sahiyligi tufayli uning amri bilan har bir shaharda masjidlar, madrasalar va xonaqolar, yo'lovchi musmonlar uchun yql ustiga rabotlar bino qilingan. Daryolar ustiga ko'priklar qurilgan.

Amir Temur o'z faoliyatida adolatga tayangan holda fuqarolarining ongini o'stirishga, musulmonchilikni ularning chuqur jo bo'lishini ta'minlashga intilgan. Shu maqsadda u barcha o'lkalarda sayidlar, ulamoyu mashoyihlar, oqilu donolar, faylasuflar, tarixchilarni e'tiborli odamlar deb hisoblab ularning izzatu hurmatini joyiga qo'ygan. Sohibqiron shijoatli kishilarni do'st tutgan, ilm ahli va ulamo bilan suhbatda bo'lib, pok niyatli, toza qalbli kishilarga talpingan, darvesh, faqir va miskinlarni o'ziga yaqin tutib, ularni ranjitmagantalablarini bajargan. Sohlom

¹ O'sha asar. 72-bet.

² O'sha asr. 72-73-betlar.

avlod tarbiyasi yo'lida barcha tadbirlarni amalga oshirgan, nasl-nasabga zarar keltiradigan giyohvandlik va ichkilikbozlik kabi illatlarga qat'iy qarshi chiqqan.

Adolatparvar podsho xalq farovonligini doimo o'ylab ish tutgan sohibqiron bu sohada juda ko'p qonun-qoidalar kashf etib barcha tabaqadagi aholining osoyishtaligini va yaxshi hayot kechirishini ta'min qilishga intilgan. Xatto gadoylarning ham tirikchiligi uchun g'amxo'rlik qilib ularga ish topib berish, boshpana bilan ta'minlashni, ojizlarga nafaqa ajratishni buyurgan. Uning farmoni bilan daydi devonalarni ish bilan ta'min qilish, uysiz, elsizlarni uyli qilish ammo ongli ravishda gadoylikni kasb qilgan sog'lom kishilarni to'plab ishdan bo'yin tovlasa, saltanatdan xaydab chiqarish yoki qul qilib sotish hukm etilgan. Sohibqiron «har mamlakatning gadoylariga vazifa yuklab bersinlar toki shu yo'l bilan gadolik rasmi yo'qotilsin» deb farmon chiqargan.

Amir Temur barcha o'lkalarda qonunchilikka amal qilishni qat'iy talab qilingan. Shu maqsadda o'zining ta'rificha, turli mamlakatlardagi sadrlar va qozilarga shariatning talablari qanday bajarilayotganligi xususida xabar qilib turishni buyurgan shunga o'xshash har bir shaharda, amir tuzuklarida yozilganidek, sipoh va raiyat orasida urf-odatlarga oid janjalli ishlar haqida to'la ma'lumot berib tursin deb, maxsus adolat amiri tayinlagan.

Nihoyatda katta, ko'pmillatli, xar xil dindagi va irqdagi Buyuk imperiyaning tinch, osoyishta va farovon yashashini ta'minlashga intilgan. Sohibqiron tuzuklarida shunday deb yozilgan «Menga bo'ysungan mamlakatlarning sayidlari, olimlari, shayxlari, fozil kishilari, darvishlari, xilvatda o'ltiruvchi(zohid)larini suyurg'ol, vazifa va maosh (nafaqa) bilan siylasinlar. Faqiru miskin, biron kasb qilishga ojiz, shol, ko'rlarganafaqa belgilasinlar. Mudarris va shayxlarga biron vazifa bersinlar»¹.

Amir Temur o'z fuqarorlarining yuksak madaniyatli bo'lishiga intilgan. U shallaqi, g'iybatchi va buzuqi, ahloqi past odamlarni o'zidan uzoqlashtirib majlislarga yo'latmagan va ularning so'zlariga amal qilmagan. «Turku tojik, arabu turli toifa va qabilalaridan bo'lgan va mening panohimga kirgan kishilarning

¹ Temur tuzuklari.-T.: «G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti», 2001, 121-bet.

ulug'lariga hurmat ko'rsatdim, qolganlarini ham o'z holiga yarasha siyladim. Kim menga do'stlik qilgan bo'lsa, do'stlik qadrini unutmadim va unga muruvvat, ehson, izzatu ikrom ko'rsatdim. Kimki mening xizmatimni qilgan bo'lsa, xizmat haqqini ado etdim»¹.

Har bir fuqaro o'z hizmatiga yarasha qadrlanibgina qolmay, Amir Temur ma'naviyat va madaniyat sohasida sohasida faol xizmat qilganlarga katta e'tibor ko'rsatgan. Sohibqiron ilm-fan, madaniyat va ma'rifatga, adabiyot va san'atning barcha sohalariga oid barcha ite'dodlarning xotirjam va samarali mehnat qilishi uchun zarur sharoit yaratgan. Ayniqsa, buyuk imperiyada bo'layotgan barcha voqealar guvohi bo'lib, yozib borish uchun maxsus tarixchi olimlarni o'zi bilan olib yurgan. Bunday allomalardan o'sha davr voqea xodisalarining shoxidi bo'lgan Amir Temur kotibi yozib qoldirgan «Tarixi xoniy» nomli asar Xofizi Abro', Nizomiddin Shoshiy, Xondamir va Sharofiddin Ali Yazdiy kabi tarixchilarning asarlari nihoyatda muhim manbadir.

«Temur tuzuklari»da mamlakat xavfsizligi masalalariga ham alohida e'tibor berilgan. Sohibqiron Amir Temur fikricha, davlat xavfsizligiga tahdid soluvchi ikki omil mavjud: 1) mamlakatning yahlitligiga rahna solishi va sodir bo'lishi mumkin bo'lgan ichki havf-xatarlar; 2) tashqi havf.

Amir Temur ichki xavfning davlatga katta salbiy ta'sir ko'rsatishini yaxshi anglagan va bu xatarni tashqisidan ham xavfliroq deb bilgan. Davlatni bardavom boshqarish juda murakkab masalaki, bunda davlat yahlitligiga yoki uning rahbariga saroy ahli, xatto uning farzandlari, nabiralari, ahli oilasi, qarindoshlari ham ko'z olaytirishi mumkin, shuningdek, g'aflatda qolgan rahbarlar fursatni tezda qo'ldan boy berishlari mumkin. Bunda avvalo, xalqning ahvoli tanglashadi. Ana shunday vaziyatda qanday yo'l tutish kerak? degan savolga buyuk davlatboshi munosib javob beradi. U insonni jazolashni emas uni jinoyatdan qaytarishni asosiy masala deb bilgan. Sohibqiron o'zining «Temur tuzuklari»da bu haqda shunday yozadi: «Amr qildimki agar o'g'illarimdan qaysi birovi saltanat martabasiga da'vogarlik qilib bosh ko'tarar ekan uni o'ldirishga yoki muchasidan bir joyini kamaytirishga

¹ O'sha asar. 71-bet.

hech kim jur'at qilmasin. Lekin o'z da'vosidan kechmaguncha asirlikda saqlansinlar. Agarda nabiralar va qavm-qarindoshlardan qaysi biri menga qarshi ko'tarilsa uni darveshdek mol-mulkini tortib olish darajasiga solsinlar»¹. U iloji boricha sergaklik bilan barchani ogohlikka chaqirib keskin choralar qo'llashdan ko'ra, kelishuv yo'lini tutishni afzal bilgan va bu, o'z navbatida, davlat tinchligini mustahkamlashda xizmat qilgan.

Amir Temur amirlar va vazirlarning davlatga qarshi fitnasini ham katta xavf hisoblagan. Uning amirlaridan birortasi davlatga qarshi fitna uyushtirsa, u mansabdan tushurilgan.

Amir Temur shunday ta'kidlaganki, «Agar vazirlar davlatga xiyonat qilgan taqdirda, ular shoshma-shosharlik bilan o'ldirilmasin»². Sohibqiron bu gaplarning chin yoki tuxmat ekanligini aniqlash uchun voqeaning rost yolg'onligini obdon tekshirishga buyurgan. U davlat mansabidagi kishilarning dushmani ko'p bo'lishini, har onda ularga tuxmatu ig'volar yog'ilishi mumkinligini yaxshi bilgan. Hukmdor bu borada sergak bo'lmog'i qora kuchlar tantanasini va o'zining tanazzulini ta'minlashga sabab bo'lmasligi kerak, deb ta'kidlagan.

Amir Temur o'z avlodlarini ichki xavfdan ogoh etish bilan birga tashqi xavfdan ham ogoh bo'lishga chaqirgan. U tashqi xavfning oldini olishga intilgan va qo'shni davlatlarning maqsadi, siyosati, iqtisodiyoti, madaniyatidan ogoh bo'lib yurgan. «Temur tuzuklari»dagi maxsus «Mulku mamlakat, sipoxu raiyat ahvolidan ogoh bo'lib turish tuzugi» uning ogohlikka alohida urg'u berilganini, ogohlik davlat arkonining eng yirik ruknlaridan biri ekanligini ko'rsatadi: «Har yetda – viloyatu shaharda va o'rdada kundalik voqealarni yozuvchilarni tayin qilsinlarki, hokimlar, raiyat sipoh o'zining va yot lashkarlarning xatti-harakati haqida meni habardor qilsin. Atrofdan kirgan-chiqqan yot mol-mulk, chetdan kirgan yoki chetdan chiqqan yot kishilar, har mamlakatdan kelgan karvonlar va hukmdorlik haqidagi habarlar, qo'shni podshohlar, ularning gap so'zlari, ishlari va uzoq

¹ Temur tuzuklari.-T.: «G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti», 2001, 91-bet.

² O'sha asar. 92-bet.

o'lkalardan kelib, mening dargohimga kelgan ulamolar, fuzalo haqidagi so'zlarni to'g'rilik bilan menga yetkazib tursinlar»¹.

Amir Temur o'zining yirik davlatida yuz berayotgan voqealarni sergaklik bilan kuzatgan. Unga har kungi yangi habarlarni uch mingta chopar, ya'ni mingta piyoda chopar, mingta ot va mingta tuya mingan chopqunchi yetkazib turgan. «Temur tuzuklari»da bu haqda shunday ma'lumotlar bor: «Amr qildimki, mingta tez yurar va ot mingan yelib yuguruvchi kishini chopqunchi, mingta tez yurar piyodani (chopar) etib tayinlasinki, turli mamlakatlar, sarhadlarning habarlarini, qo'shni hukmdorlarning maqsadlari va niyatlarini bilib, xuzurimga kelib, habar qilsinlar, toki biron voqea, kor-xol yuz bermasidan burun chora va ilojini qilaylik»². Ma'lum bo'ladiki, Sohibqiron xavfni daf etishdan burun uning oldini olish muhimligini yaxshi anglagan. U nafaqat yurtidagi, balki qo'shni davlatlarda yuz berayotgan voqealarni ham o'z xavfsizligiga dahldor deb bilgan. Amir Temur va temuriylar saltanatida xavfsizlikni saqlashga nafaqat davlat lavozimidagilar, balki barcha fuqarolar ham mas'ul bo'lgan. Davlat xizmatchilari biror bir rasmiy yohud boshqa marosimlarda, saroyda, o'rdada va boshqa yerlarda xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya etganlar. Mas'ul shaxslar har qanday sharoitda xavfsizlikni saqlashga shay turganlar.

Sohibqiron Amir Temurning havfsizlik qoidalariga qat'iy amal qilishi tabiiy hol edi. Chunki o'sha davrda unga muxolifatda bo'lgan kuchlar ko'p edi. Shu bois, u xavfsizlik xizmatini kuchaytirgan. U o'z saroyi va devonni qo'riqlashga shunday buyruq bergan, «O'n ikki ming qilich osgan askar urushi tinchlik vaqtida butun yarog' aslahalari bilan ko'shkda, devonxonaning o'ng va so'l tarafidan, orqasidan va oldidan qurshab tursinlar. Shu tartibda har kecha ulardan ming kishi uchun hozir bo'lsinlar.har yuz qilichlik ustiga bir yuzboshi qo'yilsin «.

Amir Temur saltanatida nafaqat tinchlik paytida, balki urush vaqtida ham xavfsizlik qoidalariga qat'iy amal qilingan. Demak, Sohibqiron saltanatida maxsus tayyorgarlikdan o'tgan minglab kishilar davlatboshi ma'muriy binosi,

¹ Temur tuzuklari.-T.: «G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti», 2001, 120-bet.

² O'sha asar. 120-bet

o'rdi, chegaralar saltanatni qo'riqlaganlar.

Buyuk nazariyotchi va davlat arbobi bo'lgan Amir Temurning davlat xavfsizligini ta'minlashga yo'naltirilgan ushbu qoidalar o'zining mukammalligi bilan davlat arboblari, siyosatchi va nazariyotchilar uchun dastur bo'lib qolaveradi.

Shunday qilib, yuqoridagilardan ko'rinadiki, Sharq, xususan, Markaziy Osiyo ijtimoiy-siyosiy tafakkurining rivojlanishida ulug' bobokalonimiz, sohibqiron Amir Temurning ijtimoiy-siyosiy g'oyalari, u ishlab chiqqan va amalga oshirgan ichki va tashqi siyosat mislsiz ahamiyatga ega. Amir Temur g'oyalarining o'ziga xos ulug'vorligi shundaki, ular hayoliy emas, balki real hayotdan kelib chiqqan va unda o'z ifodasini topgan. Shuning uchun ham bu g'oyalar hali ham o'zining amaliy, hayotiy ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Yurtboshimiz I. A. Karimov ta'kidlaganidek, «Amir Temurning yirik davlat arbobi, o'rta asr islohotchisi, jasur adolatpesha, fan va madaniyat homiysi sifatida siymosi har turli mafkuraviy taassurotlarga, kamsitilgan va adolatsiz baholarga qaramay, asrlar osha yashab keldi».

2.2. Alisher Navoiy asarlarida adolatli davlat qurish masalalari

Vatanimiz va xalqimiz tarixini, ma'naviy merosini, umuman milliy taraqqiyotni Alisher Navoiy davrisiz va Navoiy ta'limotisiz tasavvur etib bo'lmaydi. «Shoir o'z faoliyati va ijodida, birinchidan, chig'atoy-turkiy (eski o'zbek) milliy ongi va milliy g'oyasi shakllanishiga xizmat qilgan. YA'ni avvalo o'zining badiiy ijodida, har qanday siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy (maktablar, madrasalar qurish, san'atkorlarga, olimlarga, adiblarga, ulamolarga homiylik qilish) faoliyatida, turkiy (eski o'zbek) tilda ijod qilishni alohida rag'batlantirishda va boshqa barcha masalalarda yangi shakllanayotgan elat, uning adabiy tili va davlatchiligi manfaatlaridan kelib chiqib ish tutgan. Ikkinchidan, eski qzbek adabiy tili meyorlari va mezonlarini tartibga keltirishda hal qiluchi rol o'ynagan. Uchinchidan, milliy-badiiy tafakkurni jahon badiiy tafakkurining yuksak cho'qqilariga ko'tara olgan». Navoiy yashagan davrda mamlakatning ravnaq topishi uchun yuzaga kelgan talablar salmog'i yanada ko'proq salobat kasb etib borgan va milliy taraqqiyotning keng qamrovli ehtiyojlari Navoiy ma'naviy merosida muhim o'rin tutdi. Aynan milliy taraqqiyot oldiga davr qo'ygan vazifalarni chuqur idrok etish va uni amalga oshirishga da'vat etish Navoiy merosini ta'limot deb atash uchun imkon beradi. «uning asarlarida o'zbek xalqining ravnaqini o'ylash, temuriylar davlati bardavomligi, yurt osoyishtaligiga erishish yo'l-yo'riqlari, millatni tarbiyalashning mukammal tizimi, insoniylik, komil axloqning o'sha davrga xos ham ma'naviy-tabiiy (estetik), ham ilmiy-hayotiy talqinlarini ko'ramiz» .Haqiqatdan, Alisher Navoiy yuqorida zikr etilgan masalalarning barchasi haqida asarlarida mulohaza yuritadi.

Mamlakatning bo'linib ketishi, toj-taxt talashishlar, amir va xonlar o'rtasidagi o'zaro ziddiyatlarning o'sib borish xavfi milliy mushtaraklikka halaqit berar, bu jarayonni ortga tortar edi. Shuning uchun qanday qilib bo'lmasin, mamlakatdagi parokandalikning, bo'linib ketish xavfining oldini olish, milliy jipslikni ta'minlash muhim edi.

Milliy jipslikni ta'minlovchi omillar Alisher Navoiy yashagan davrda

nimalardan iborat bo'lgan, degan o'rinli savol tug'iladi. O'zi yashagan davrda milliy taraqqiyot uchun zarur omillarni Navoiy teran angladi va asarlarida izchil tadqiq etdi. Navoiy asarlarida ilgari surilgan markazlashgan yagona davlat va uning adolatli podshohi, xalqning ma'murligi, iqtisodiyotning o'sishi – dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiqning rivojlanishi, til birligiga erishish "adabiy til", ma'naviy - mafkuraviy birlik g'oyalari milliy jipslikni ta'minlovchi muhim omillar edi. Alisher Navoiy eng ko'p murojaat etgan markazlashgan yagona davlat va uning adolatli podshohi g'oyasi milliy jidslikni ta'minlash uchun o'sha davrda yetakchi omillardan edi. Qudratli va adolatli shoh g'oyasi davlat, mamlakat va albatta, fuqarolik munosabatlarini mushtaraklashtirish ehtiyojlarini mujassam qamrab olishi bilan ahamiyatlidir. Navoiyning odil shoh g'oyasida mamlakat ahlining erkin va farovon hayotini ta'minlashni davlat boshqaruvining asosiy vazifasiga aylantirish maqsadi o'z ifodasini topgan:

Kerak lutfu ehson shior aylasang,

Adolat yo'lin ixtiyor aylasang.

Raiyatga sendan yetib shodlik,

Mamolikka yuz qo'ysa obodlik.

("Saddi Iskandariy")¹

Mamlakatni adolat bilan boshqaruvni saltanatning qudratini belgilovchi omil sifatida talqin etar ekan, Navoiy davlatning iqtisodiy yuksalishga muhim e'tibor qaratgan. Bu esa odil shoh g'oyasida Navoiy yashagan davr va milliy taraqqiyotning muhim ehtiyojlari ifodalanganini asoslaydi. Iqtisodiy yuksalish, xalq farovonligi va adolat bilan boshqaruv bugungi milliy taraqqiyot uchun salmoqli ahamiyatga ega. Bu milliy istiqlool g'oyasining bosh maqsadida muxtasar topgan.

Alisher Navoiy yashagan davrdagi siyosiy hayot esa markazlashgan yagona davlat hokimiyatini qo'ldan bermaslikni, aksincha, uni mustahkamlashni, bu zarur choralarning davlat va xalq taqdiri uchun nechog'lik dolzarbligini ochiq - oydin, ko'rsatmoqda edi. 150 yil hukm surgan mo'g'ullarga siyosiy qaramlik, yurtdagi

¹ Alisher Navoiy. «Saddi Iskandariy», Mukammal asarlar to'plami, -T.: «Fan», 1991, 177-bet.

boshboshdoqliklar iqtisodiy va madaniy qoloqlikka sabab bo'lgani va Temurning hokimiyatga kelishi bilan mamlakatdagi siyosiy parokandalik va ichki nizolarga chek qo'yilishi natijasida erishilgan millat va yurt ravnaqi bilan bog'liq tarixiy muvaffaqiyatlar muhim saboq va tajriba ham edi. Temur o'z vavotidan oldin oliy taxtning rasmiy vorisini tayinlagan, ammo uning dunyodan o'tganligi haqidagi xabar saltanatda tarqashi bilan bu vasiyatga amal qilish o'rniga har bir temuriy shahzoda taxtga o'tirish ishtiyoqi bilan toj talashishga berilib ketdi. Bunday holat Ulug'bek va Shohruh vofotidan keyin ham tez - tez takrorlanib turgan.

Mamlakatdagi ichki parokandalik, bo'linib ketish holatlari tashqi xavf va tahdid uchun qulay imkoniyat yaratib berar, milliy jipslik va mamlakat taqdiri jiddiy xavf ostida qolishi mumkin edi. Bunday sharoitda Navoiy voqelikka o'z faol munosabatini bildirmasligi mumkin emas. Ham badiiy, ham g'oyaviy jihatdan barkamol asar bo'lgan Alisher Navoiy "Xamsa"si vatan va xalq taqdiri, milliy taraqqiyot ikki o't orasida qolgan davrda yaratildi. O'z davrining milliy taraqqiyot oldiga qo'ygan dolzarb vazifalari: milliy - ma'naviy yuksalish, milliy davlatchilikni saqlab qolish va takomillashtirish g'oyasi faqat Alisher Navoiy yaratgan "Xamsa" asariga xos edi. Shuning uchun Navoiy "Xamsa"si muhim g'oyaviy qimmatga ega.

Mamlakat va xalq taqdirini shohning adolati bilan bog'lash Sharq tafakkur olami uchun Navoiygacha ham o'ziga xos bir an'ana sifatida shakllanib kelgan. Navoiy odil hukmdor g'oyasini "Saddi Iskandariy"da va boshqa asarlarida yanada aniqlashtirdi, o'z davri muammolari bilan ramziy, majoziy obrazlarda bog'ladi. Shoh bo'lishga munosib shaxs uchun qo'yilgan talablarda Navoiy yashagan davrning eng dolzarb vazifalari: yurt obodligi, tinchligi, ma'murligi o'z ifodasini topgan. Aynan shu vazifalar milliy taraqqiyotning ehtiyojlari hamdir. Bu kuzatuvlar bizga milliy g'oyaning harakatlantiruvchi mohiyatini ochish uchun ham zarurdir. Chunki, milliy g'oya davrning millat oldiga qo'ygan vazifalari bilan birga takomillashib boradi. U davr ehtiyojlaridan ajralgan holda, sun'iy tarzda yashay olmaydi. Milliy g'oya taraqqiyotning biror xalq va millat tomonidan anglangan ehtiyoji sifatida yuzaga chiqadi. Shu o'rinda g'oyaning milliylik mohiyatini tor

ma'noda milliy ko'rinishlardagi qobiq bilan chalkashtirish uning ahamiyatini bir tomonlama, ba'zan hatto noto'g'ri tushunishga olib kelishi mumkinligiga to'xtalish zarur. Navoiy bejiz xalq ma'murligi odil shohning bosh maqsadi bo'lishi zarurligiga da'vat etmagan. Mamlakatning iqtisodiy va ma'naviy qudrati tushunchalari o'zaro chambarchas bog'liqdir.

Ayni paytda xalqning ma'murligi mamlakat ahlining muhim ma'naviy - ijtimoiy ehtiyojlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgani uchun u milliy jipslikni yanada tezlashtiruvchi va mustahkamlovchi omil edi. ma'murlik mamlakat ahlining, hunarmandlar, dehqonlar, savdo - sotiq ahli va boshqa ko'plab tabaqalar munosabatlarining yanada rivojlanishiga. bu bilan esa ishlab chiqarish ehtiyojlarining yanada kengayishi va o'sishiga yo'l ochib berardi. Alisher Navoiyning "Mahbub ul qulub" asarida shohdan tortib oddiy fuqarogacha o'z oldilarida qanday vazifalar turishini anglashga da'vat qilinishi ham bejiz emas. Mamlakat aholisi siyosiy, iqtisodiy ahloqiy, huquqiy va boshqa ijtimoiy - ma'naviy munosabatlarining rivojlanishi fuqarolararo munosabatlarning yanada yuksak shakllarga ko'tarilishiga zarur muhit yaratadi.

Xalq va davlat munosabatlarining har tomonlama murakkablashib borishi tabiiy yo'sinda ma'naviy - mafkuraviy birlikka ehtiyojni yuksaltiradi. Shunday ehtiyojlarning bir ko'rinishi Alisher Navoiy ilgari surgan til birligiga erishish g'oyasi edi.

Turk ulusining "xushta'b beklari va "Turk ulusining "xushta'b beklari va mirzozodalari"ning ko'pi o'z ona tillaridan begonalashib, forscha moyil bo'lganlaridan bezovtalangan alloma ularni Xusayn Bayqarodan o'rnak olishga undaydi. Navoiyning bu muddaosi "Muhokamatul lug'atayn" nihoyasida ko'tarinki ruhda ifodalangan. Turkiy tilning ichki imkoniyatlari, ya'ni fasohatu - balog'ati forsiydan aslo kam emasligini asoslab:"...turk ulusi fosihlariga ulug' haq sobit qildimki, o'z alfoz va lug'atlari kayfiyatlaridin voqif bo'ldilar va forsiygo'ylarning ibrat va alfoz bobida ta'n qilur sarzamindin qutuldilar"¹ - deganda Navoiy turkiy shahzodalar saltanatining mustahkamlanishini ona tili rivojlanishi bilan bog'lagan

¹ Alisher Navoiy. «Muhokamatul lug'atayn». Mukammal asarlar to'plami.-T.: «Fan», 2000, 34-bet.

va davlat mustaqilligi ona tili rivojlanishini belgilovchi omillardan biri ekanligini ta'kidlagan.

Yagona til birligiga erishish mamlakat ahli turli ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlarning yanada mustahkamlanishiga va takomillashishiga qulay imkoniyat yaratib, ko'pgina qabila va elatlarning yanada jipslashuviga xizmat qilardi. Ikkinchi tomondan esa davlat mustaqilligi ona tilining ravnaqi, uning imkoniyatlarining boyishi uchun muhim edi. Ona tili amal qilish va xizmat qilish doirasining kengayishi faqatgina davlat mustaqilligi bilan amalga oshirilardi. "Muhokamatul lug'atayn" mana shunday ulkan vazifani bajarishga chorlovchi asar hamdir. Chunonchi, turkiy hukmdorlar o'z salohiyatlarini ona tillarida namoyon etsalar, bu bilan ona tili rivojiga ham hissa qo'shadilar va albatta ona xalqining intilishi va maqsadlaridan begonalashib ketmay, aksincha, uning manfaatlariga xizmat qilsalar, degan da'vo Alisher Navoiyning asl muddaosi edi.

Bir – biri bilan bog'liq bo'lgan shu kabi asoslarga ko'ra, Alisher Navoiy ilgari surgan g'oyalar yaxlit ta'limot darajasida mujassamlashgan. Shuni ham e'tirof etish joizki, Navoiy qarashlari milliy yuksalishning ma'lum bir tarixiy bosqichi bo'libgina qolmasdan, bugungi mustaqillik sharoitida o'zlikni anglashda, milliy manfaatni idrok etish, davlat va xalq manfaatlarini bir butunlikda bilishda o'z ahamiyatini zarracha yo'qotgan emas.

Alisher Navoiy merosi mujassam ta'limot darajasida o'rganilishiga asos bo'ladigan g'oyalar tuzimida quyidagilar alohida ajralib turadi. Avvalo bu ta'limotda har bir masala xalq manfaatlarini nuqtai – nazaridan tadqiq etiladi. Xalq orasida keng ommalashgan – «Odami ersang demagil odami, onikim yo'q xalq g'amidin g'ami» misralarining shoh bayt o'rnida qabul qilinishi ham mulohazalarimizga oydinlik kiritadi. Navoiy tafakkurida har bir fikr, g'oya xalq manfaatlarini teran idrok etishning yorqin ifodasi sifatida tug'ilib, shu manfaatlarini teran idrok etishning yorqin ifodasi sifatida tug'ilib, shu manfaatlarini hal etish yo'l – yo'riqlari bilan chambarchas bog'langan. Navoiyning barcha da'vatlari millat va xalq farovonligiga yo'naltirilganligi bilan birga xalqning moddiy farovonligi ma'naviy – siyosiy mustaqillik bilan, xususan, davlat mustaqilligi bilan bir – birini

taqozo etuvchi vazifalar sifatida olingan. Millatning xalq sifatida shakllanishi milliy manfaatlarni umumxalq manfaatlari darajasida anglashni taqozo etibgina qolmasdan, shaxs manfaatlarini mamlakat ravnaqi bilan uyg'unlashtirishni asosiy vazifaga aylantiradi.

Alisher Navoiy ko'targan ijtimoiy masalalar milliy taraqqiyotning mohiyatli jihatlarini real belgilab olishimiz uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Eng muhimi, Alisher Navoiy da'vatlarining, ilgari surgan g'oyalarining milliylik kasb etishi uchun millatga xos tashqi belgilar, urflar yig'indisini tartib qilib berishga hech bir ehtiyoj yo'q. Bunday tarkib milliy g'oya tushunchasining mazmunini umuman ochib berolmaydi. Milliy g'oyaning harakatlantiruvchi mohiyati xalqni yuksak maqsadlar yo'lida jipslashtirishi, safarbar etilishidadir. Har bir xalqni taraqqiyotga rag'batlantiruvchi g'oya uning milliy g'oyasi hisoblanishi mumkin.

Mamlakat va xalqning farovonligini har jihatdan tadqiq etgan Navoiy milliy jipslik g'oyasiga muhim urg'u bergan. Chunonchi, mamlakat ahlining jipsligi ham shohning odil siyosati bilan bevosita bog'liqdir.

Milliy jipslik haqida xulosa yuritilar ekan, Alisher Navoiyning «Mahbubul - qulub»dagi tanqidiy qarashlari, o'rinli xavotirlariga alohida to'xtalish joiz. Mamlakat ahli: turli tabaqa va kasb – kor vakillari, yagona kuch, mushtarak tizim. Shunday ekan, ular o'z burchlarini shu mushtaraklikka zid bo'lmagan holda idrok etsalar maqsadga muvofiq bo'ladi. Xususan, shohning maslahatchilari, vazirlar, beklar, noiblar haqida kuyunib fikr yuritganda say – harakatlari mamlakat ravnaqiga qaratilmagan amaldorlarning tanqid qilinishi, Navoiyning ulardan nafratlanishi bejiz emas. Ular mamlakat taqdirini belgilaydigan amallarda turganlari holda milliy manfaatlarni idrok etishdan yiroq, «tariqlari – xudnamolik», «varzishlari xudparastlik», «rasmlari - xudodolik»dan nariga o'tmaydi. Bunday jamiyatda fuqaro ma'mur bo'lolmasligidan, mamlakat va mulk taqdirini ularga ishonib bo'lmasligidan bezovtalangan alloma mamlakatdagi ichki parokandalikning kelib chiqish sabablaridan shohni ogoh etmoqchi.

«Mahbub ul - qulub» asarida musulmon jamiyatida o'ziga xos ta'sir va mavqega ega tabaqa vakillarining ta'magirlik, shariyat qonunlarini buzish

holatlarining tanqid qilinishi orqali Navoiy jamiyatning ma'naviy parokandalikka tushish sabablari va xavfidan ogoh etadi.

Navoiy o'zini o'ylantirgan g'oyalarini o'z timsollariga singdirib, bu g'oyalarning turli xalqlar va millatlar uchun birday qadrli va e'zozli, ardoqli va sevimli bo'lishini orzu qilgan. Bundan maqsad umuminsoniy bag'rikenglik asosida bir – biriga qardosh, yondosh xalqlarni o'zaro mushtaraklikka da'vat etishdir. Bu esa o'z navbatida, milliy totuvlik ehtiyojini, millatlararo totuvlik, do'stlikni, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni yaqinlashtirishni, omuxtalashtirishni Navoiy o'z zamonidayoq qanchalik teran anglaganing bir ko'rinishidir.

Milliy taraqqiyot va Alisher Navoiy ta'limoti haqidagi mulohazalarimiz umuminsoniy bag'rikenglik va yetuk shaxs g'oyalarisiz kemptik bo'lib qolishi mumkin edi. Alisher Navoiy, albatta, bu mavzularga ham xalq va mamlakat manfaatlarini nuqtai – nazaridan yondashgan.

Avf, karam, mehr – muruvvat Navoiy talqinidagi bag'rikenglikning asosiy sifatlaridir. Mamlakatning adolat bilan boshqariluvini el, yurt iqboli uchun qanchalik muhim bo'lsa, bunday boshqaruv tamoyilida insoniy bag'rikenglik muhim ahamiyatga egadir. Alisher Navoiy insoniy bag'rikenglikni shunchaki ezgulikning bir ko'rinishi sifatida talqin etmaydi, aksincha, saltanatning ravnaqini, hokimiyatning qudratini aynan insonparvarlik dasturilamali bilan bog'laydi, bundan ko'zlangan maqsad xalqning ma'mur hayotidir.

Ta'kidlash joizki, o'zingga ravo ko'rmagan narsani boshqaga ham ravo ko'rma, degan tamoyil umuminsoniy qadriyatdir. Bu tamoyil Konfusiylarning ta'limotida ham, qadimgi Hindistonning «Manu qonunlari» da ham, Tavrot va Qur'onda ham uchraydi. Alisher Navoiy bu umuminsoniy g'oyani bek va shahzodalarga yana bir bor eslatadi.

Alisher Navoiyning komil inson xususidagi talqin va xulosalarini «Farhod va Shirin» da Farhod hamda «Saddi Iskandariy» da Iskandar timsollarida ham kuzatish mumkin. Navoiyning komil inson g'oyasi hayotning sinov va ziddiyatlari bilan to'qnashuvlarda mohiyatan yanada ochiladi. Bizningcha, bu juda muhim masala. Bu, birinchidan, Navoiyda komil inson hayotdan ajratib qo'yilgan hayoliy

orzu emasligini, ikkinchidan esa, Navoiyning muhim an'anaviy qarashlarga tayanishi ularni takrorlashdan iborat bo'lmaganini anglatadi va Navoiyning o'z davri ziddiyatlariga yechim topishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yganini har jihatdan yoqlaydi. Navoiy talqinidagi komil inson silliq, ravon hayot yo'liga ega emas. Ular anglangan holda shunday mashaqqatlar bilan yuzma-yuz bo'ladilarki, maqsadga sodiqlik ibratini Navoiy har qanday holatda ham ustun qo'ygan. Bu Navoiyning asl g'oyaviy mo'ljalidirki, Farhodning xalq farovonligi yo'lida o'zini bahshida etishini, bunday maqsadni xatto o'z ishqidan ham ustun qo'yishni alohida e'tirof etish zarur.

Bugun biz mustaqil O'zbekistonning yosh avlodi har qanday boqimandalikni o'ziga or deb biladigan, bilimni, eng zamonaviy kasblarni egallagan, ayni paytda vatanparvar, fidoiy, ma'naviy yetuk bo'lib kamol topishi to'g'risida mulohaza yuritar ekanmiz, albatta, Navoiyning g'oyalari va ideallariga tayanamiz.

Xullas, Alisher Navoiy adolat, inson qadri, mamlakat va shaxs manfaatlarini yakdillashtiruvchi xalqparvarlik, vatanparvarlik g'oyalari singdirilgan asarlari munosib ma'naviy meros bo'la olishini, bu g'oyalar hamisha o'zlikni anglashga rag'batlantira olishini chuqur anglagan shunday buyuk maqsad bilan ijod qilgan Navoiy ta'limoti millatni va xalqni o'zi orzu qilgan g'oyalar tevaragida jipslashtirib turuvchi beqiyos xazina ekanligi millatni – millat, xalqni – xalq etishga yetaklovchi milliy g'oyaning tarixiy rivojlanish jarayonlari o'rganilganda yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi. ***Husayn Voiz Koshifiyning «Axloqi muxsiniy» («Yaxshi xulqlar») asarida amir, vazirlarning aqlu farosati, o'zini tutishi to'g'risidagi fikrlar***

Husayn Voiz Koshifiy (Koshifiy taxallusi; asl ismi Kamolildin; Voiz — laqabi) (taxm. 1442-1446, Sabzavor qishlog'i — 1505, Hirot) — voizlik sanati namoyandasi va nazariyotchisi, mutafakkir, ilohiyotchi olim. Arab, fors, turk tillarini yaxshi bilgan, matematika, kimyo, astronomiya, musiqa, adabiyot va fikrdan tula ma'lumot olgan. Yoshligidan voizlik bilan shug'ullangan. Hishopp va Mashhadda (1455-1468), keyinchalik Hirotida (1468 yillar) yashagan. Asarlarini fors tilida yozgan. Navoiy bilan ijodiy hamkorlik qilgan, unga

bag'ishlab asar yozgan («Mavoqibi oliya» - «Oliy tuxfalar»). Falsafa, axloq, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, siyosat, din tarixi, voizlik, she'r san'ati kabi fanlarga oid 200 dan ortiq asar muallifi. Axloq haqidagi eng mashhur asarlaridan biri «Axloqi muxsiniy» («Yaxshi xulqlar») Husayn Boyqaronipg o'g'li Abulmuhsin Mirzoga bag'ishlangan. «Futuvvatnomai sultoniyy yoxud juvonmardlik tariqati» asari o'zbek tilida nashr etilgan (1994). Koshifiyning 45 nomdagi asarlarining 197 qo'lyozma va 75 toshbosma nusxalari O'zbekiston FA Sharqshunoslik institutida saqlanadi.¹

«Axloqi Muhsiniy» - Husayn Koshifiyning axloqqa oid asari. Sulton Husaynning o'g'li, temuriylar shahzodasi, Marv hukmroni Muhsinga bag'ishlangan. Bu asar shaxsiy, oilaviy va fuqarolik axloq asoslarini o'z ichiga olgan 40 bobdan iborat. Asarda muallif adolat, sabr, yoqimlilik, hayo, odob, ishonch, va'daga vafo qilish, shijoat va siyosat kabi masalalar haqida so'z yuritadi. «Axloqi Muhsiniy»ni 1858 yili Ogolim fors tilidan o'zbek tiliga tarjima qilgan. Asar O'rta Osiyoda keng tarqalgan. Uning ko'pgina nodir qo'lyozma nusxalari O'zbekiston FA Sharqshunoslik institutida saqlanadi.² Husayn Voiz Koshifiyning «Axloqi Muhsiniy» asarining "Mulozimlar odobi" deb nomlangan bobida amir, vazirlar va ular qo'li ostida ishlaydiganlar, shu kabi eshikog'alar, mahramlarning aqlu farosati, o'zini tutishi, saroy etiketiga rioya qilish shartlari, saroydan tashqaridagi ishlar, fe'l-atvor va hokazolar bayon etilgan.

«Bilmoq kerakki, deb gapini davom ettiradi Koshifiy, kimki podshoh xizmatiga kirsa va davlat ishlari bilan band bo'lsa, uning siyratu niyati, maqsad-muddaosi podsho nomini ulug'lash va mamlakat obodonligiga qaratilgan qonun-qoida, odobu axloqqa bo'ysunishdir. Bunda to'rt jihatga rioya etmoq talab qilinadi: birinchidan, Haq taolo buyrug'iga muvofiq ish ko'rish; ikkinchidan, podsho tomonidan turib faoliyat yuritish (podsho manfaatiga xilof ish qilmaslik), uchinchidan, o'zini ham himoya qilish; to'rtinchidan, raiyat (xalq) nomidan ish

¹ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 5-jild. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, -T.: 2003, 78-bet.

² O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-jild. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, -T.: 2001, 531-bet.

olib borish. Avval shuki, Haq taoloning ilohiy ne'matiga shukronalar aytib, shariat talablariga zid bormasin, har yerda haqiqat yuzasidan ishni hal qilsin, «Xudo rozi - xalq rozi» degan hikmatga amal qilsin, chunki Xudo ko'rsatgan yo'l eng to'g'ri yo'ldir, Xudodan qo'rqqan odam podshoga ham xiyonat qilmaydi va haqiqatni himoya qilish, adolatni joriy etishda dadil bo'ladi. Ammo podsho tomonida turib faoliyat yuritishning 25 ta sharti bor. Bular quyidagilardir:

1) Xoksorlik bilan itoatkorlikda bo'lish, hamma vaqt shohning sha'nu shavkati, ulug'vorligini tan olib, uni ehtirom etish. Shohlar xaloyiq ustida posbondirlar, hukm va farmon chiqarishda ixtiyorlari o'zlaridadir.

2) Mehnat va mashaqqat, riyozat chekishlarga sabr qilish, zero, podsholar xizmatini qilish zahmatdir, bunga chidab, toqatli bo'lish kerak. Donishmandlar debdurlarki, shohlar xizmati xalq bilan shoh orasida to'g'ri munosabat o'rnatish bo'lib, ham rohatu lazzat va ham mashaqqat hisoblanadi.

3) Xodim nimani fikrlasa, aytmoqchi yoki qilmoqchi bo'lsa, har doim podsho rayini o'ylasin, uning manfaatiga muvofiq ish tutsin.

4) Yumshoqlik va yoqimli dalilu hikoyatlar bilan podshoga zulmning nojoizligi, yomonligini tushuntirib, adolatning ulug'ligini ta'rifu tavsif etsin, podshoni zulmdan qaytarib, adolat yo'lini tutishga ruhlantirsin.

Keltiribdurlarki, Yahyo Vasitiy nihoyatda mohir xattot edi, chiroyli xati odamlar ko'zini quvontirardi. Xalifa kotiblariga ta'lim berardi. Bir kun uni bir vazir huzurida maqtab tilga oldilar. Dedilarki, Yahyo qalamni (qamish qalam) chiroyli tarashlaydi. Vazir Yahyoni chaqirib, o'zi uchun bir qalam tarashlashni buyurdi. Yahyo uning aytganini qildi. Vazir shu qalam bilan bir farmon yozdi. Xati chiroyli chiqqanini ko'rib zavqlandi va Yahyoga to'n kiygizib, bir kissa oltin hadya etdi. Yahyo zar to'nni kiyib, qo'lida oltinlar bilan tashqariga chiqdi. U shu holda saroy eshigiga yetib kelganda, birdan orqasiga qaytib, vazir huzuriga kirdi va unga qarab: "Ey vazir, bu qalamni tarashlashda yana bir san'at esimdan chiqibdi, ijozat bersangiz, shuni qo'shib qo'yay». Vazir qalamni berganda, Yahyo yonidan pichoqni olib, qalamning boshini kesib tashladi va to'n bilan oltinni vazirning oldiga qo'ydi. Vazir undan «senga nima bo'ldi?» deb so'radi. Yahyo dedi: «Saroy

darvozasiga yaqinlashganda mana bu oyat xotiramga keldi: "Zolimlarni ularning sheriklari va madadkorlari bilan birga daf' qiling". Shunda ko'nglimda bu qalam bilan sen zulmu sitamga sabab bo'luvchi biron narsa yozsang, men ham sherik bo'larman va Allohning qahriga uchrayman, degan fikr kechdi.

Zolimning do'sti bo'lsang, ey aziz,

Sen ham shu qavmdan bo'lasan shaksiz.

5) Podshoni xayrli ishlarga da'vat qilsin, shunday qilsinki, podshoning yaxshiligi hammaga yetsin, negaki, eng yaxshi in'om umumga yetadigan in'omdir, zero, oftobning nuri hamma yerga yetadi, bulutning yomg'iri yer yuzini serob qiladi. Bir hakimdan so'radilarki, yaxshilik kimga yo'naltirilgan bo'lishi lozim va uning a'lorog'i qaysi? Dediki: yaxshilikni hammaga birday qilmoq afzal, uning eng yaxshisi beg'araz, minnat qilinmaganidir. Saxovatli odam ochiq ko'ngil, yuzi ravshan bo'ladi, xayrli ishidan quvonib yuradi:

Yuzning ravshanligi, ko'ngil sofligi,

Saxovatli erlar sifatlaridir.

Ezgulikdan yashnab, yayraydi qalblar,

Saxovatdan saxiy dilida huzur.

6) Biror odamni obdon yaxshi bilmasang, sifatlarini sinab ko'rmagan bo'lsang, uni podshoga ta'rif etib, tavsiya qilma.

7) Podshoning diliga yoqadigan, xursand etadigan narsalarni muhayyoqilishni esdan chiqarma, agar podshohning mayli yaxshi ot, mato va hokazo narsalarga bo'lsa, buni muhayyo qil.

8) Agar podsho suhbatlashmoqchi bo'lsa, dilu jondan, butun vujudi bilan eshitsin, biror so'zini qoldirib ketmasin, suhbat paytida boshqa tomonga qaramasin, boshqa ish bilan mashg'ul bo'lmasin. Chunki podsholar so'zlariga e'tibor qilmaganni yoqtirmaydilar.

9) Podsho majlisida birov bilan sirlashib o'tirmasin, bunday paytda podsho badgumon bo'ladi, xayolidan turli gaplar o'tadi va sirlashib o'tirganlardan xavfsirab, kek saqlab yuradi. Ayni holatdan saroy hasadchilari foydalanib, podshoga ig'volar qiladilar.

10) Agar podsho boshqa birovga savol bilan murojaat etsa, oraga suqilib, javob berib, mahmadonalik qilmasin.

11) Podsho biron narsa so‘ramasa, birinchi bo‘lib so‘zlamasin, ammo agar so‘rasa, imkon qadar to‘liq javob bersin, keyin jim tursin. Agar podshohda xohish bo‘lsa, suhbat davom etishi mumkin.

12) Agar podsho muayyan narsa yoki ish bilan uni tanishtirishni istamasa, bunga hech bir havas qilmasin, bilishga intilmasin. Negaki, har kimning qobiliyatiga qarab ish beradilar.

13) Podshoning tuhfa va in‘omlari ko‘p yoki kamligiga qaramay, xursandlik bilan qabul qilsin, norozilik bildirmasin, tashakkur aytsin. Zero, podsholarning oz tuhfasi ham katta e‘tibor nishonasidir, norozilik esa takabbur va podshoga e‘tiroz belgisi bo‘lib, oqil odamlar bu ishni qilmaydilar.

Qabul et ne kelsa shohdin begaraz,

Xoh kam, xoh ko‘p, kabir yo mo‘jaz.

14) Omonatga xiyonat qilmasin. Omonatni saqlash yaxshi odamlar sifati, u kishini aziz etadi, xiyonat esa azizni xor qiladi.

15) Podsho beradigan maoshga qanoat qilsin, rozi bo‘lib yursin, ortig‘ini talab qilsa, hirsga berilsa, e‘tibordan qoladi.

16) Podsho huzurida ham, boshqa joylarda ham u haqda faqat yaxshi so‘zlarni aytsin, uni sharaflab, izzat-ikrom bilan tilga olsin. Agar birovdan podsho haqida nojo‘ya, behurmat etuvchi gaplar eshitsa, darhol tanbeh bersin, kerak bo‘lsa, jazolasin, agar islohga kelmasa, u bilan suhbat qilishni tark etsin.

17) Topshirilgan ishni a‘lo darajada bajarsin, hamisha o‘zini ishga tayyor deb his etsin, sulton qachonki uni yo‘qlasa, darhol hozir bo‘lsin, malol keladigan, noxushlik tug‘diradigan ishlarga aralashmasin.

18) Podshoning yaxshi munosabati, muhabbatiga haddan ziyod ishonib yurmasin, o‘z xizmatining ko‘pligidan ham ko‘ngli to‘q bo‘lib, g‘ururlanmasin. Chunki podsho g‘azablansa, bularning bari bir lahzada chippakka chiqadi. Podshoga xizmatini pesh qilib, talab qo‘yish ham odobdan emas, bu ortiqcha

izzattalablik bo‘ladi. Sultonlar nazdida faqat duogo‘ylik va xizmatga tayyor turish, farmonbardorlikkina yoqimlidir.

19) Podshoga ish yuzasidan arz etishning ham o‘z mahali, vaqti bor. Vaqtni bilib, qabulga kirganda iloji bo‘lsa, bitta talabni aytish bilan kifoyalanmoq kerak, toki podshoga malol kelmasin.

20) Agar seni podsho alohida qadrlab, aziz, tutsa ham, ammo sen o‘z yaqinlaring, xizmatdoshlaring, avvaldan ishlab kelganlardan o‘zingni alohida hisoblab, yuqori olib yurma, bu fitna va bo‘htonlarga sabab bo‘lishi mumkin.

21) Podshoning qahru sitamidan ranjimasin, aksincha bunday qattiqliklarni yumshoqlik va dildushlik bilan qabul qilsin. Podsho dashnomi saltanat ehtiyojidandir, uni qabul qilib, o‘zini tuzatgan xodim aqllidir.

22) Sulton qahru g‘azabiga duchor bo‘lsa, hech kimga bundan shikoyat qilmasin va adovat, gina saqlamasin.

Har qancha jafo bo‘lsa, shikoyat qilmaymiz,

Gunoh bizda deymizu e’tiroz etmaymiz.

23) Agar sulton biror kishiga g‘azab etsa, uni dargohdan uzoqlashtirsa, unday odamdan uzoqlashmoq yaxshi, u bilan bir majlisda o‘tirmasin va uni maqtamasin. Ammo sulton g‘azabi bosilib, tuhmatga qolgan odam oqlansa, u bilan yana avvalgiday muomalada bo‘lish lozim.

24) Podshoning roziligiga qarab ish tutsin va uni xursand qilish payida bo‘lsin. Bunda to‘rt narsaga e’tibor qilish kerak. Birinchidan, podsho nima desa, tasdiqlab tursin; ikkinchidan, podshoning xohish va tadbirlarini maqtasin; uchinchidan, uning yaxshi tomonlarini shoyon etsin, elga yoysin; to‘rtinchidan, uning ojiz tomonlari, nuqsonini yashirsin.

25) Sabablarning asli, shartlarning boshi, adablarning asosi sirlarni saqlashdir. Sulton sirlari qattiq saqlanishi lozim. Har bir mulozim, davlat xodimi buni esdan chiqarmasin. Sultonning siri - davlat siri demak. Podshohning so‘zlari, fe‘l-atvori haqida iloji boricha gapirmaslik lozim.

Deydilarki, bir ulug‘ podsho dono hakimdan nasihat talab qildi. Hakim dedi: "Ey oliyqadr podshoh, barcha nasihatlar quyidagi ikki so‘zda mujassam:"O‘z

farmonlarningning qadrini baland tut va Xudoning bandalari -xalqqa shafqatni darig tutma".

Podsho dedi: "Siyosat borasida soʻz ayt". Hakim dedi: "Odamlarni oʻldirishga rujuʻ qoʻyma, chunki inson badanini xarob etib, jonidan judo etish eng katta gunoh. Ammo uch xil odamni oʻldirishni barcha donolar ravo deydilar, bular: 1) mamlakatni xarob etuvchi zolim mansabdor; 2) molu mulkingni oʻgʻirlovchi amaldor; 3) siringni oshkor etuvchi xoin".

Mulozimning oʻziga nisbatan qoʻyiladigan talablar quyidagilardir:

1) Ruksat etilmagan narsani olmasin va buyurilmagan joyga narsa bermasin.

2) Qoʻlidan kelgancha yomonlikni dafʻ etsin, barchaga iloji boricha yaxshilik qilsin.

3) Himmatni baland tutsin, chunki odamning eʼtibori uning himmatiga yarashadir. Har kimning oldida oʻzini past tutib, taʼmagirlik qilmasin. Molu dunyoga haris boʻlgan odam oxiri xor boʻladi.

4) Oʻzini deb boshqalarni ranjitmasin va boshqalarni deb oʻzini azobga qoʻymasin. Odamlarni rozi qilaman, deb Xudoning qahriga qolish joiz emas. Xudoning amru farmoni hamma narsadan balanddir.

5) Insoniylik qadr-qimmatini baland tutsin, ixtiyorim va qudratim bor, deb haddan oshmasin.

6) Oʻz qudrati va mansabiga magʻrur boʻlmasin va izzat-ikromlarga uchmasin. Chunki jafokor dunyo doim bir xil emas. Biroz vaqt oʻtib, oʻzgarishlar oqibatida noumidlik va mahrumlikka duchor boʻlish hech gap emas. Xullas, amal-mansabda ham, oddiy odamlar orasida ham insoniy qiyofani bir xil saqlash lozim.

7) Sultonlarga yaqin boʻlishdan foydalanib, imkon qadar xalqqa yaxshilik qilsin, katta-kichik barchaning arzini tinglasin va muddaolarini ado etsin. Zero, kimki birovga yaxshilik qilsa, u avval oʻziga yaxshilik qilgan boʻladi. (Qurʻon oyati: "Agar yaxshilik qilsangiz, oʻzingizga yaxshilik qilgan boʻlasiz").

Asarda raiyat tomonini himoya qilish, kambagʻallar, yoʻqsil darveshlarning holidan xabardorlik, xayru saxovatli boʻlish haqida ham chuqur maʼnoli gaplar

aytilgan. Davlat tuzishdan maqsad - xalq foydasini koʻzlab ish yuritish, davlatchilikning butun mohiyati shu, deb uqtiradi Koshifiy.

Ammo raiyat (xalq)ga nisbatan rioya qilinadigan ishlar juda muhim va alohida eʼtiborni talab qiladi. Chunki shuni bilish kerakki, mansab va davlat ishlarining asl mohiyati podsho va xalq orasidagi munosabatlarni toʻgʻri yoʻlga qoʻyishdir. Davlatning bosh maqsadi xalq rayu xohishini hisobga olish, osoyishtaligini saqlash va shaharu qishloqlarni obod qilishdir. Shunday ekan, xalq tarafini olish eng muhim ishdir. Buning ikkita sharti bor: Birinchisi - xalq ahvoli muhofazasi boʻlib, bu shunday boʻlishi kerakki, har kimga oʻz ishi bilan shugʻullanishiga xalaqit bermasin, kishilar ish joylari, mashgʻulotlaridan ajralib qolmasinlar, sarosimaga tushmasinlar.

Ikkinchisi - zolimlar yomonligini qaytarib tursin. Hakimlar debdurlarki, raiyat qoʻylar kabi boʻlsa, podsho va ayonu mulozimlari bamisoli choʻpondirlar. Choʻpon qoʻylarni boʻridan asragani kabi mulozimlar (sulton madadi bilan) xalqni badniyat zolimlardan himoya qilsin. Arkoni davlat raiyat ahvolidan podshoni xabardor etib turishi lozim. Xalqni zarar keltiruvchi narsalardan voqif qilish, din va dunyo ishlarini birga olib borishga safarbar qilish ham ularning vazifalariga kiradi.

Endi bir-ikki ogʻiz amirlar va vazirlar odobi haqida. Amirlar davlat ishini yurgizishda quyidagi oʻn ikki qoidaga rioya qilishlari kerak.

Avvalo, Xudoga bandalik shartlarini ado etish boʻlib, Haqning roziligini hammadan ustun tutsin.

Ikkinchidan, podshoni valineʼmat deb bilib, uning huquqini himoya qilish, bu ishda xatoga yoʻl qoʻymaslik va eʼtiboru eʼtimodni zarracha susaytirmaslik lozim. Podshoning tanbehlarini koʻngliga olmasdan, achchigʻini shirin deb qabul qilsin.

Uchinchidan, amirning niyati podsho va davlat manfaatiga qaratilgan boʻlsin, molu mulk, davlatu boylikka munosabatda ham shu niyat yetakchilik qilsin. Zinhor oʻz nafsini oʻylab ish qilmasin.

Beshinchidan, hech qachon podshoga taqlid qilmasin, podshoga munosib narsalarga oʻzini munosib deb bilmasin, oʻz haddu jodasini bilib yursin.

Oltinchidan, podshodan sodir boʻladigan ishlar gʻayri sharʻiy boʻlmasa, ularni maqtab tilga olsin va podshoni ruhlantirsin.

Oqillar debdurlarki, har bir ishning ikki tomoni bor: biri goʻzal va biri xunuk. Shunday ekan, amirlar ishlarning yaxshi, goʻzal tomonlarini taʼkidlasinlar, agar ishning qabih tomoni koʻrina boshlasa, podshoga donishmandona yoʻl topib tushuntirsinlar va qaytarsinlar.

Yettinchidan, podsho amirni tanqid qilib soʻz aytsa va amir tabiatiga zid fikrlar bayon etganda ham amir buni qabul qilmogʻi va eʼtiroz bildirmasligi lozim. Chunki amir shohning chokaridir, chokar xojaga eʼtiroz bildirmaydi.

Sakkizinchidan, oʻz mansabi va shohga yaqinligidan magʻrurlanib ketmasin, podshoning izzatidan taltaymasin. Ibni Muqaffaʼ "Odobnoma"sida zikr etiladiki, agar mabodo sulton seni oʻziga barobar deb bilsa ham, sen uni oʻz xoʻjang deb hisobla va agar seni farzandim desa ham, sen oʻzingni xodim, xizmatkor deb bil, u qanchalik seni koʻtarsa, sen shuncha tavozuʼ va xoksorlikda boʻl:

Podshoh bandaga lutf qilgani yaxshi,

Lek banda haddini bilgani yaxshi.

Toʻqqizinchidan, qoʻshin ishining tartib va tarbiyasi amirga bogʻliq boʻlgani uchun amir podsho qoʻshinini har doim orasta va tayyor holatda saqlasin, har bir sipohiy oʻzini harbu zarbga tayyor deb his etsin. Zero, olam hodisalarga toʻla, noxush voqea va fitna qaysi tarafdin zohir boʻlishini oldindan bilish qiyin. Askarni jamlash va kerakli narsalar bilan taʼminlash amirning birinchi galdagi vazifasidir.

Oʻninchidan, davlat barqarorligi, mamlakat osoyishtaligini taʼminlash maqsadida xabar yetkazuvchilar va josuslar saqlasin, ular atrof-javonibda boʻladigan voqealardan uni xabardor qilib tursinlar. Har yerdaki fitna paydo boʻlsa, uni bartaraf qilish chora-tadbirini koʻrsin. Hikoya qiladilarki, Sohib ibn Ibod Faxruddavlah Daylamiyning mulozimi edi, koʻp vaqtini Sherozda oʻtkazardi. Nima boʻldi-yu, uch kun podsho huzuriga kirmay qoʻydi, toʻrtinchi kun borganida podsho soʻradi: nega tartibga xilof ravishda uch kun huzurimga kelmading?

Sohib ibn Ibod dedi: "Uch kun avval bizning xabar yetkazuvchimiz Xitoydan yetib keldi va dediki, Xitoy xoni oʻzining farroshxonasiga borayotganda, davlat

arkonlaridan biri bilan so‘zlashardi. Uch kundirki, Xitoy xoni nima degan ekan, degan fikr bilan band bo‘ldim va ehtiyotan lashkarni ko‘zdan kechirib, tayyorgarligini tekshirdim, chora-tadbirlar qildim. Oxiri bugun tongda boshqa bir xabarchi yetib kelib, Xitoy xoni qo‘shinini tayyorlab, o‘z mamlakatining uzoq boshqa go‘shasiga yuborayotganini aytdi. Shundan so‘ng xotirjam bo‘lib, huzuringizga keldim".

O‘n birinchidan, faqir va nochorlar, zulm ko‘rganlar podsho huzuriga arz bilan kelsalar, orada vositachilik qilib, arzchilarning dodini podshoga yetkazsin. Ba’zi amirlar raiyat diliga qo‘rquv solib, saroyga yaqinlashtirmaydilar. Bu huddi ichida timsoh yotgan ariqqa o‘xshaydi, odamlar chanqoq bo‘lsalarda, biroq timsohdan qo‘rqib, ariqdagi suvga yaqinlasholmaydilar.

Agar amal-mansab egasidirsan,

Shunday qilki, xaloyiq rozi bo‘lsin.

O‘n ikkinchidan, qo‘l ostidagilarga muloyimlik va rahmdillik bilan muomalada bo‘lsin, o‘zini ular o‘rniga qo‘yib ko‘rsin. Hadis borki: "Kimki o‘zgalarga rahm qilmasa, Xudoning rahmatiga yetolmaydi. Kimki xalqqa kechirimli bo‘lmasa, uni kechirmaydilar". O‘zingdan pastda turganlarni rahm qilib, kechirsang, saxovat ko‘rsatsang, sendan yuqori turganlarning baxshoyishiga muyassar bo‘lasan.

Vazirlar odobi davlat arkonlari ichida eng e’tiborlidir, chunki podsho dargohida vazirlikdan og‘irroq ish yo‘q. Negaki, vazirga hasad qiluvchilar ko‘p va ular aksar saroy mulozimlaridirlar. Xususan, u bilan ish yuzasidan muloqotda bo‘ladigan, birga yuradigan, suhbatdoshlik qiladigan kishilar, afsuski, mansab tama’ida, hirsu hasad komiga tushib, doimo g‘iybat va tuhmat to‘rini to‘qiydilar, uni domga tushirib, bandi qilish uchun hiyla-nayranglar ishlatadilar. Bunday sharoitda vazir usta tadbirkor, tama’ni rad etadigan to‘g‘rilikni shior qilib ishlashi lozim. G‘animlar ayb topmasligi uchun odob chegarasidan chiqmasligi, zakovatli bo‘lishi talab qilinadi. Ulug‘ donishmandlar debdurlar-ki, o‘z vazifasini halolpok bajargan kishiga ayb izlovchilar dahl qilolmaydilar.

Buzurgmehrardan vazirlikka kim loyiq, deb soʻradilar. Dedi: "Kimda-ki toʻrt va uch va ikki va bir narsa boʻlsa". Dedilarkim, tushuntirib ayt! Dedi: "Toʻrt narsa - bu: hushyorlik, bedorlik, dilovarlik (jasoratli boʻlish), javonmardlik. Uch narsa - bu: xizmatkor ishni yaxshi bajarsa, ragʻbatlantirish, maqtash; farmonidan bosh tortganlarni jazolash va hayotda boʻladigan voqea-hodisalarga tayyor turish. Ikki narsa deganim, bu podsho manfaatini oʻylab ish qilish va raiyat manfaatini ham unutmaslik. Ul birki dedim, bu : barcha ishlarda Haq subhonahuni esdan chiqarmasin".

Demak, rostlik va poklik sifatlari bilan bezangan vazir adolat ustunlarini tiklashda podshoga eng yaqin madadkordir.

Shu bilan birga, vazirlikning yana oʻn toʻqqizta sharti borki, bu yukni yelkasiga olgan odam shularga eʼtibor qilishi kerak boʻladi.

Birinchidan, hamma yerda, hamma ishda Haq taolo tomonida turib ish koʻrish, oʻz ahvoli haqida doim mulohazada boʻlib, noshoista, noloyiq ishlardan oʻzini chetga olish.

Ikkinchidan, shoh, sipoh va raiyat orasida munosabat (muvofiglik)ni saqlasin, biror tarafga maylni kuchaytirsas, boshqa tarafga nisbatan adolatsizlik kelib chiqadi. Bu vazirlik ishining eng mushkul tomonidir.

Uchinchidan, har bir ishni boshlaganda oqibatini chuqur oʻylasin, toki pushaymonlik hosil boʻlib, barmogʻini tishlab qolmasin.

Toʻrtinchidan, har doim yaxshilikni niyat qilib, yaxshilik qoidasiga amal qilsin. Hadis borki: "Kimki yaxshi odatlarni yaxshilik yoʻlida qilsa, uning mukofoti boʻladi, har kimning mukofoti uning amaliga loyiqdir".

Beshinchidan, davlat boshqaruvida salohiyat koʻrsatsin, oʻz vazifasining muhimligini isbotlab tursin, qalamning kuchi qilichning kuchidan ustunligini amalda koʻrsatsin.

Oltinchidan, podsholar xohishi togʻdan koʻchgan sel kabidir, uni toʻsaman degan halok boʻladi, ammo tadbir qoʻllab bu selni zararsiz tomonga yoʻllash mumkin, vazir ham aqlu zakovat va oʻta ehtiyotkorlik bilan podshoning nodurust xohishlarini qaytarishga urinsin.

Yettinchidan, mansab-martaba bilan podshoga yaqinlikdan magʻur boʻlmasin. Chunki sultonlar feʼli suv va olov kabi ziddiyatlidir, siylab turib, birdan yondirib, yoʻq qilishi mumkin.

Sakkizinchidan, fursat - imkon borida ehson va sahovat qilsin.

Toʻqqizinchidan, muhtojlar hojatini chiqarishda jiddu jaxd bilan intilsin, zero, podshoga mulozim boʻlishdan maqsad raiyat hojatini chiqarishdir.

Oʻninchidan, sultonni xayrli ishlarni amalga oshirishga undash lozim. Shunday yoʻl tutsinki, sultonning xayru saxovati barchaga yetsin.

Oʻn birinchidan, odamlar koʻnglini ogʻritmasdan, doʻstlarni unutmasdan, ularni xursand qilib yurish payida boʻlsin, birovni tahqirlash, uyaltirishni oʻylamasin. Shunda amal qoʻldan ketganda pushaymon boʻlmagay.

Oʻn ikkinchidan, xalqning unga yaqinlashishi, odamlar taraddudidan dilgir boʻlmasin, ular bilan uchrashganda qovogini solmasin. Shuni esdan chiqarmasinki, davlat ham, mulozimu ayonlar ham xalq uchundir.

Oʻn uchinchidan, atrofiga xolis doʻstlarni yigʻsin, ular yakdil va bir yoqadan bosh chiqaradigan, ogʻir damlarda qoʻllaydigan kishilar boʻlsin. "Muxlis va xolis doʻst ganjdan yaxshiroq" deganlar.

Oʻn toʻrtinchidan, xoin va zolimlar aʼmolidan gʻofil boʻlmasin, ularning ahvoli, ishlaridan muntazam xabardor boʻlib tursin. Zolimlar, nobakorlarni fosh etib, jazolashni unutmasin.

Oʻn beshinchidan, amaldorlardan pora olmasin, zero, rishva (pora) bergan odam rishva olishi muqarrar. Rishva haromdir, haromxoʻr boʻlma.

Oʻn oltinchidan, agar fasod keltiruvchi hiylagar, gʻammoz, gʻiybatchilar ishidan voqif boʻlsa, sabr qilsin, darrov tashqariga chiqarmasdan, xotirjam holda podsho majlisida ularni ohista va muloyimlik bilan fosh etsin, gʻazabga berilsa, dushman foydalanadi, gʻalaba ohistalik va halimlik bilan fikr yuritgan odam tarafidadir.

Oʻn yettinchidan, oʻzini shohga shunday koʻrsatsinki, agar shoh bir soʻz aytsa yoki ishora qilsa, butun molu mulki, oʻzligini shohga bagishlashga tayyor boʻlib tursin.

O‘n sakkizinchidan, birovga amal-mansab beradigan bo‘lsa, uni avval obdon sinasin, har tomonlama tekshirib ko‘rsin, chunki odamlar ayblarini yashiradilar, mansabga chiqqandan keyin esa bu ayblar oshkor bo‘lib qoladi.

O‘n to‘qqizinchidan, boshlanishi oson ko‘rinib, ammo keyin qutulish qiyin bo‘lgan yumushga kirishmagani ma’qul.

Vazir, amirlar qo‘lida ishlaydigan kotiblar, umuman, qalam ahlining ham odobi bor. Qalam ahli orasida dabirlar – podsho kotiblari va insho devoni (kanselyariya) xodimlari alohida mavqega ega. Ular barcha ishdan xabardor bo‘lgani uchun nihoyatda sir saqlaydigan, ishining ustasi, pishiq, chiroyli va savodli yozadigan kishilar bo‘lishi lozim. Arastudan podshoning hojibi (eshik og‘asi) yaxshimi yoki kotibi yaxshimi, deb so‘raganlarida, hakim debdurkim: "Hojib podsholikning bir bo‘lagi bo‘lsa, kotib uning butunkullidir". Agar latif tab’li dabir topilsa, u davlat ishlariga ko‘p foyda keltiradi. Vazir qo‘li ostida ishlaydigan amaldorlar ham muhim ishlarni bajaradilar, ular xushxulq, nafsini tiygan, hirsu tama’dan uzoq bo‘lishi lozim. No‘shirovon dediki, amaldor ham qo‘li bog‘langan, ham qo‘li ochiq bo‘lgani ma’qul, ya’ni yaxshilikka qo‘li ochiq bo‘lib, xiyonatdan qo‘l tortsin. Yana amaldor nojo‘ya rasm-rusumlarni joriy etmasin, o‘zicha qonun chiqarmasin, shunday qilsa, podshohni badnom qilgan bo‘ladi».

Podsho majlislarida o‘tiradigan nadimlar qoida-tartibdan chiqmasdan, adab va hurmat doirasida turishlari lozim.

Barchaga ilmu adab lozimdir,

Odobi bor yaxshi mulozimdir.

Adab mulku molingdan ham afzal,

Adab insonni qilur mukammal.

Aytilganlar davlat xodimlari axloqi va a‘moliga sifat bo‘ladigan qoida-talablardir. Qolgani har bir insonning Xudo bergan aqlu zakovati, tarbiya va naslu nasabi tozaligiga bog‘liq, deydi asar muallifi.

Husayn Voiz Koshifiy mavjud qarashlarni jamlab, bir tizimga keltirish bilan birga, o‘z kuzatishlarini qo‘shib bayon etgan. Natijada "Axloqi Muhsiniy" asari

davlatchilik nazariyasi, davlat xodimlari tarbiyasi bo'yicha muhim dastur shaklini olgan. Asar ana shu jihati bilan ham qimmatlidir.

X U L O S A

Mustaqillik tufayli boy o'tmishimizni, tarixiy va ma'naviy qadriyatlarimizni o'rganishga keng imkoniyatlar yaratildi. Ajdodlarimizning ijtimoiy siyosiy fikr rivojiga qo'shgan xissalarini o'rganish mustaqillik madaniyati va ma'naviyatini shakllantirish, jamiyatimiz a'zolari ongiga milliy istiqlol g'oyalarini singdirishda o'tmishdan ko'p saboqlar olish mumkinligini, bu saboqlar kelajak uchun, shubhasiz foydali ekanligini ko'rsatadi. Bitiruv malakaviy ishi bayonidan quyidagi **xulosalarga** kelish mumkin:

1) Abu Nasr Forobiy insoniyat jamiyati, uning kelib chiqishi, boshqarish usullari va vositalari haqidagi o'z ustozlarining g'oyalariga, ilg'or nazariy merosga tayanib, o'zining hayotiy kuzatishlari va mulohazalari asosida jamiyat va davlatning turlarini, ko'rinishlarini, davlat va jamiyat kelib chiqishining asosiy sabablarini, jamiyatda kishilarning jamoa bo'lib yashash qonunlarini bayon etgan;

2) Abu Rayxon Beruniy tabiatan boshqarishga moyil bo'lgan hokim o'z fikri va qarorlarida qat'iy bo'lishi, o'z ishlarini amalga oshirishda faylasuflarning qonunlariga bo'ysunishi, yaratuvchanlik ongiga ega bo'lishi, ayniqsa dehqonlar to'g'risida ko'proq g'am yeyishi lozim. Beruniy «odil hokimning asosiy vazifasi oliy va past tabaqalar, kuchlilar va kuchsizlar orasida tenglik, adolat o'rnatishdan iborat»¹ degan fikrlari bugungi kun uchun ham qimmatlidir;

3) Ibn Sinoning ijtimoiy hayot haqidagi ta'limotida adolat, tinchlik, yaxshilik va hamdo'stlik hukmron bo'lgan ideal davlat haqidagi g'oyalari muhim o'rin egallaydi.

4) Kaykovus dunyodagi mavjudotni bir-biri bilan bog'liq va murosasiz deb talqin qiladi. U kishi ruhiyatini ham 2 guruhga bo'ladi: jismoniy sezgini modda,

¹ Ma'naviyat yulduzlari (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar).-T.: «Xalq merosi», 2001, 109-bet.

ruhiy hissiyotni esa «jon» bilan bogʻlaydi va bularning birini moddiy, ikkinchisini ruhiy hayot mahsuli deb koʻrsatadi.

6) Alisher Navoiy adolat, inson qadri, mamlakat va shaxs manfaatlarini yakdillashtiruvchi xalqparvarlik, vatanparvarlik gʻoyalari singdirilgan asarlari munosib maʼnaviy meros boʻla olishini, bu gʻoyalar hamisha oʻzlikni anglashga ragʻbatlantira olishini chuqur anglagan.

X-XV asrlarda yashagan buyuk allomalarimiz jamiyat hayotini tadqiq etish asosida jamiyat, davlat va ijtimoiy – siyosiy munosabatlar masalalariga katta eʼtibor berganlar va shu asosda ijtimoiy – siyosiy fikr rivojiga ulkan hissa qoʻshganlar. Ularning asarlarida adolatli va maʼrifatli hukmdor, insoniy munosabatlar, ahillik, hamkorlik, aql qudrati kabi masalalar markaziy oʻrinni egallagan. Biz hozir idrok etayotgan milliy oʻzlikni anglash, mustaqillik, milliy istiqloq gʻoyalarining ildizi ushbu mutafakkirlarimiz dahosiga borib taqaladi.

Shularga koʻra buyuk allomalarimizning ijtimoiy – siyosiy fikr taraqqiyotiga, jumladan, siyosiy yetakchilikka doir gʻoyalar rivojiga qoʻshgan hissalarini oʻrganish, targʻib qilish, asarlarini izlab topish va nashr etish oʻtmish tariximizni, boy madaniy – maʼnaviy merosimiz va siyosiy qadriyatlarimizni chuqur bilish va idrok etishda nihoyatda muhim ahamiyatga ega.

Tavsiyalar.

1) Markaziy Osiyo mutafakkirlarining, maʼnaviy – siyosiy taʼlimotlarini oʻrganishga eʼtiborni yanada kuchaytirish, bu ishga turli ijtimoiy fan vakillarini faol jalb etish;

2) maʼnaviy siyosiy yetakchilikka doir masalalarni oʻrganishda fikrlar xilma – xilligiga keng yoʻl ochish;

3) Markaziy Osiyodagi ijtimoiy – siyosiy tafakkur taraqqiyotining oʻziga xos xususiyatlarini oʻrganishga eʼtiborni kuchaytirish;

4) oliy oʻquv yurtlarining gumanitar taʼlim yoʻnalishlarida Markaziy Osiyo mutafakkirlarining dunyo ijtimoiy – siyosiy tafakkuri rivojiga qoʻshgan hissalarini oʻrganish boʻyicha maxsus kurs va maxsus seminarlar tashkil etish;

5) ulug‘ allomalarimizning boy ma’naviy – madaniy, ijtimoiy – siyosiy merosini o‘rganishda xorijiy mamlakatlar olimlari bilan hamkorlikni keng yo‘lga qo‘yish;

6) o‘tmishimizdagi ijtimoiy – siyosiy g‘oyalarni o‘rganishni rag‘batlantiruvchi tanlovlar, ko‘riklar o‘tkazishga e’tiborni kuchaytirish.

Bu tadbirlarning amalga oshirilishi tariximizni, boy siyosiy qadriyatlarimiz va merosimizni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish va e’tiborni yanada kuchaytirish, bu boradagi salohiyatimizni ortishiga olib keladi. Zero, «o‘zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi»¹.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi . -T., O‘zbekiston. 2012.
2. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. Asarlar, 2-jild.-T.: «O‘zbekiston» 1996
3. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. Asarlar, 7-jild, -T.: «O‘zbekiston», 1999
4. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma’ruza, 2010 yil 12 noyabr)-T.: «O‘zbekiston», 2010
5. .Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. -T.: «O‘zbekiston», 1998
6. Karimov I.A. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. - T.: «O‘zbekiston», 1995
7. Karimov I.A. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. - T.: «O‘zbekiston», 1995
8. Karimov I.A. O‘zbekiston XX1 asr bo‘sag‘asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: «O‘zbekiston», 1997
9. Karimov I.A. O‘zbekiston XX1 asr bo‘sag‘asida; xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: «O‘bekiston»,1997

¹ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. Toshkent. «O‘zbekiston», 1998, 5-bet.

10. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch., «Ma'naviyat», -T.: 2008
11. Abu Nasr Farobiy. Risolalar.-T.: «Fan», 1975
12. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri.-T.:»Xalq merosi», 1993
13. Abu Nasr Forobiy. «Fozil odamlar shahri», -T.: «Xalq merosi», 1993
14. Alisher Navoiy. «Muhokamatul lug'atayn». Mukammal asarlar to'plami. -T.: «Fan», 2000
15. Alisher Navoiy. «Saddi Iskandariy», Mukammal asarlar to'plami, -T.: «Fan», 1991
16. Alisher Navoiy. Muhokamatul lug'atayn. Mukammal asarlar to'plami. -T.: «Fan», 2000
17. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy.Mukammal asarlar majmuasi. -T.: «Fan»,1991
18. Amir Temur jahon tarixida. -T.: 1996
19. Amir Temur o'g'itlari., tuzuvchilar B.Ahmedov, A.Aminov. –T.: Navro'z, 1992.
20. Buyuk siymolar, allomalar (O'rta Osiyolik mashhur mutafakkir va donishmandlar), 1-kitob.-T.:»Xalq merosi», 1995
21. Buyuk siymolar, allomalar, 1-kitob, -T.: «Xalq merosi», 1995
22. Jo'raqulov F. Jahon fanida Beruniy tomonidan hind falsafasini yoritishning baholanishi masalalari. «Falsafa va huquq», 2005, 4-son
23. Kaykovus. Qobusnoma. Nashrga tayyorlovchilar: S.Dolimov, U.Dolimov. –T.: «O'qituvchi» NMIU, 2006
24. Ma'naviyat yulduzlari (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar). -T.: «Xalq merosi»,2001
25. Muhitdinova F., Siyosiy va huquqiy ta'limotlar tarixi., O'quv qo'llanma, -T.: TDYUI, 2006
26. Narshaxiy. Buxoro tarixi. -T.: «Fan», 1966

27. Nizomulmulk., Siyosatnoma yoki Siyar ul-mulk., (fors tilidan tarj., soʻz boshi va izohlar mualliflari: Shodmon Vohid Xusayinzoda, A.Erkinov) – T.: Adolat, 1997
28. Nishonova N., Amir Temur davlati siyosatida Saroymulkxonimning oʻrni. «Jamiyat va boshqaruv», 2010 yil, 2-son
29. Ochilova G., Sohibqironning ijtimoiy siyosiy qarashlari. «Jamiyat va boshqaruv», 2008 yil, 1-son
30. Poʻlatov H., Sulaymonov Q. Siyosatshunoslikka kirish.-F.:1994.
31. Sotvoldiyev S. «Siyosatnoma»da davlat boshqaruvi qoidalari. «Jamiyat va boshqaruv» jurnali. 2010 yil, 4-son
32. Sulaymonova F. Sharq va gʻarb. -T.: «Oʻzbekiston», 1997
33. Sultonmurod Olim. Yangi asr taʼlimoti. «Tafakkur», 2001, 1-son
34. Temur tuzuklari. -T.: «Gʻofur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti»,1996
35. Uvatov U. Xorazmlik buyuk alloma. -T.: «Yangi asr avlodi»,2006
36. Erkayev A. Milliy gʻoya va maʼnaviyat. -T.: «Maʼnaviyat», 2002
37. Yusuf Xos Xojib. Qutadgʻu bilig. -T.: «Fan», 1971
38. Oʻljayev SH. Rahbar kadrlarni tayyorlashda Amir Temur merosidan foydalanish. «Jamiyat va boshqaruv», 2009 yil, 2-son
39. Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-jild. «Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, -T.: 2000
40. Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi. 5-jild. «Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, -T.: 2003
41. Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi. 6-jild «Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2003
42. Qilichev A., Amir Temurning davlat boshqaruvi. «Jamiyat va boshqaruv», 2009 yil, 1-son
43. Qodirov B., Mirzo Ulugʻbek Bayt-ul Hikmasi. «Jamiyat va boshqaruv», 2008 yil, 1-son
44. Qosimov B. Milliy uygʻonish. -T.:, 2001

45. Gʻofurov B., Bobur merosiga qiziqish ortmoqda. «Jamiyat va boshqaruv», 2007 yil, 4-son
46. Habib Abdunazar. «Qobusnoma». Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi. 11-jild «Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2001
47. Hayitov Z., Sohibqironni anglash. «Jamiyat va boshqaruv», 2009 yil, 1-son
48. Hayrullayev M. Uygʻonish davri va Sharq mutafakkirlari. -T.: «Oʻzbekiston», 1971
49. Hayrullayev M. Oʻrta Osiyoda IX-XII asrlarda madaniy taraqqiyot (Uygʻonish davri madaniyati)., «Fan», -T., 1994
50. Hasanov S. Mutafakkirlar mehnat tarbiyasi haqida. -T.: «Oʻqituvchi», 1993
51. Shamsiddinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. 1-kitob. –T.: «Sharq», 2010
1. www.ziynet.uz
2. [http// www.gov.uz](http://www.gov.uz)
3. [http// www.lex.uz](http://www.lex.uz)
4. [http// www.press-service.uz](http://www.press-service.uz)
5. [http// www.tsil.uz](http://www.tsil.uz)